



# MUSTAHKAM ISHONCH VA DO‘STLIK, OG‘ZIBIRLIK VA HAMKORLIK RAMZI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-fevral kuni iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy sohalar va mahallalarda olib borilayotgan ishlar bilan tanishish, yangi obyekt va loyihalarni ishga tushirish uchun Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumaniga borib, yangi ko‘prikning ochilish marosimida ishtirok etdi.

Bu ulkan iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega strategik inshootdir. Prezidentimiz bu haqdagi tashabbusni 2020-yil 13-dekabr kuni Xorazm viloyati faollari bilan uchrashuvda ilgari surgan edi. Shundan so‘ng puxta loyiha ishlab chiqilib, katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari uning qurilishini ikki bor kelib ko‘rdi.

29-fevral kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati faollari ishtirokida yangi ko‘prikning tantanalari ochilish marosimi bo‘ldi.

Prezident dastlab poyezdda va avtomobilda yurib, ko‘priklarni ko‘zdan kechirdi. Jamoatchilik ishtirokida yig‘ilishda bu loyiha-niing samaradorligi, aholi hayotidagi ahamiyatini ta’kidladi.

— Orolbo‘yi mintaqasini, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasini rivojlantirish, avvalo, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatib, murakkab vaziyatda yashayotgan aholimizga qulay sharoitlar yaratish mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadlaridan biridir. Ilgari ham aytganimdek, Qoraqalpog‘istonning taqdiri — bu O‘zbekistonning taqdiri, qoraqalpog‘ xalqining baxti va farovonligi — bu butun O‘zbekiston xalqining baxti va farovonligidir. Bugun mana shu ezuq maqsadni amalga oshirish yo‘lida yana bir ulkan qadam qo‘ymoqdami, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ko‘priklarni qurish joy yurtimizning eng chekka hududlaridan biri. Shu paytgacha odamlar o‘tgan asrlarning eiliginchi yillarida olib kelingan eski ponton ko‘priklardan foydalanib kelar edi. Har bahorda muz erib, daryoda suv ko‘payishi bilan u jiddiy shikastlangan. Bu daryoning ikki tomonidagi aholiga juda ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirardi.

Masalan, Amudaryo tumani aholisi avtomobilda Nukusga borish uchun Urganch va Bemurtoq — Qorao‘zak bekatalarini bog‘laydigan 85 kilometrlik temir yo‘l hamda 3 ta vokzal ham barpo etildi.

Bu inshoot samarasida yo‘lning o‘tkazish qobiliyati 4 barobarga oshib, bir kecha-kunduzda 12 ming avtomobil harakatlanadi. Natijada 48 ming yo‘lovchining 2 soat vaqti tejraladi va daryodan xavfsiz o‘tishi ta‘minlanadi.

Ko‘priklarni qurish uchun 29-fevral kuni poyezdni o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu orqali temir yo‘l masofasi 180 kilometrga, yuk tashish tezligi esa 6 soatgacha qisqaradi. Bu esa mahalliy yuklarni tashish hajmini yiliga 2 barobarga oshirish, tashish tannarxini 2 barobarga kamaytirish imkonini beradi. Ushbu temir yo‘l orqali

Qozog‘iston va Rossiya ham yangi yo‘nalishlar ochiladi.

Shuningdek, Qorao‘zak konlaridan tosh endi poyezdlarda tashilishi hisobiga Orolbo‘yi mintaqasidagi 4 million aholi va turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi avtomobil yo‘llari sifatli saqlanadi. Bundan ham aholi, ham tadbirkor va turistlar katta manfaat topadi.

— Biz birgalikda bunyod etgan bu muhtasham ko‘priklarni shunchaki navbatdagi infratuzilma inshooti emas. Bu ko‘priklarni, avvalo, o‘zbek va qoraqalpog‘ xalqlari o‘rtasidagi mustahkam ishonch va do‘stlik, og‘zibirlik va hamkorlik ko‘prigidir. Bu yo‘l jahonga ochilayotgan Yangi O‘zbekiston, Yangi Qoraqalpog‘istonning taraqqiyot va farovonlik yo‘llaridir. Mana shu azim daryoning ikki sohilida, shunday yorug‘ kunlarni orzu qilib yashab kelayotgan mingminglab yurtdoshlarimizning umidlari ro‘yobga chiqqan tarixiy kun barchamizga muborak bo‘lsin, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari og‘ir iqlim sharoitida fidokorona mehnat qilgan mo‘hr quruvchilarga, loyihachi va muhandislarga, ko‘priklarni barpo etishga munosib hissa qo‘shgan barcha insonlarga minnatdorlik bildirdi. Aholiga qulaylik yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi ta’kidlandi.

Xususan, bu yil Buxoro – Urganch – Xiva, kelgusi yildan Miskin – Nukus temir yo‘li elektrlashtiriladi. Natijada Xiva hamda Nukus shaharlariga tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu hududlardagi aholining mamlakatimizning boshqa shaharlariga borib-kelishi osonlashadi. Bu loyihalar hisobidan transport xarajatlari 2 barobar qisqarib, yo‘lovchi tashish 30 foizga oshadi.

Umuman, bunday yirik loyihalar Qoraqalpog‘iston va Xorazmning iqtisodiy salohiyatini oshishi, investitsiyalar oqimi va ish o‘rinlari ko‘payishi, aholi daromadlari o‘shishiga xizmat qiladi.

Marosimda so‘zga chiqqanlar mamlakatimiz hayotidagi ushbu tarixiy bir voqea munosabati bilan barchani tabriklab, Orolbo‘yi rivojiga e‘tibori uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Xiva klaster” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining to‘qimachilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo‘shilgan qiymat yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, agrosanoatda klasterlar tomonidan zamonaviy korxonalar qurilib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish kengaymoqda.

“Xiva klaster” ham Xiva tumanida shunday fabrika tashkil etdi. Turkiya, Germaniya va Xitoydan ilg‘or uskunalar keltirib o‘rnatildi. O‘tgan yil noyabrda ishga tushirilgan korxonada 500 kishining bandligi ta‘minlandi.

Korxona yiliga 7 ming tonna ip-kalava, 4 ming tonna trikotaj mato, 10 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Eng muhimi, ularning sifati xalqaro standartlarga javob beradi. Shu boisa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to‘liq eksportga

yo‘naltiriladi. Korxonaning yillik eksport salohiyati 15 million dollar atrofida.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi ishlab chiqarish jarayonini ko‘zdan kechirdi, tikuvchi xotin-qizlar bilan suhbatlashdi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi bugungi tendensiyadan kelib chiqib, bu korxonada ham energiya tejamlorlikka e‘tibor qaratilgan. Masalan, kuz-qish oylarida xonalar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan issiq suv yordamida isitiladi. Natijada katta miqdordagi tabiiy gaz tejraladi. Shuningdek, majmua tomlariga umumiy quvvati 60 kVt bo‘lgan quyosh panellari ham o‘rnatilgan. Bularning hisobiga mahsulot tannarxi raqobatchilarnikiga nisbatan past bo‘lmoqda.

Korxonada xorijiy hamkorlar talabiga asosan sifat nazorati, kasb o‘rgatish markazi tashkil etilgan. Chiqindilarni qayta ishlab, foydalanish ham yo‘lga qo‘yilgan.

To‘qimachilik klasteri o‘tgan yili qariyb 20 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirgan. 1 ming 545 gektarda tomchilab sug‘orish yo‘lga qo‘yilgan.

Umuman, klaster tomonidan 2018-2023-yillarda 105 million dollarlik loyihalar amalga oshirilib, yillik 50 million dollarlik eksport quvvati yaratilgan. Klaster tizimida jami 800 dan ortiq yigit-qiz ishlamoqda. Jumladan, hozirda boshqa korxonalar bilan hamkorlikda yog‘, sovuq, tuxum, sut mahsulotlari, poyabzallar kabi 20 ga yaqin tovarlar ishlab chiqarilmoqda.

Prezidentimiz mazkur klaster tizimidagi istiqbolli rejalar bilan ham tanishdi. Jumladan, yangi loyihalar hisobiga paxta yetishtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni olish, kichik hajmli yuk mashinalarini mahalliyashtirish mo‘ljallangan. Shuningdek, yaqin yillarda chiqindisiz ishlab chiqarishga o‘tish rejalashtirilgan.

Klaster bo‘lajak loyihalarni amalga oshirish orqali 10 mingdan 30 minggaacha ish o‘rini yaratishni maqsad qilib olgan.

Davlatimiz rahbari Xorazm viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan investitsiya loyihalarini taqdimotlari bilan ham tanishdi.

Viloyatda chet ellik investorlar bilan hamkorlikda mashinasozlik, shaharsozlik, kimyo, to‘qimachilik, qurilish materiallari, tibbiyot, oziq-ovqat kabi muhim tarmoqlarda umumiy qiymati 1,5 milliard dollarlik o‘nlab loyihalar ishlab chiqilgan. Taqdimotda shundan umumiy qiymati 660 million dollardan ziyod 18 ta loyiha haqida axborot berildi.

Xususan, yuk elektromobillari, akkumulyatorlar uchun nikel sulfat, arxitektura oynalari, shisha idishlar, qurilish materiallari, lak-bo‘yoqlar va mato ishlab chiqarish kabi loyihalar hudud iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shib, minglab ish o‘rinlari yaratishi bilan ahamiyatli. Mehmonxona, shifoxona, ko‘ngilochar maskanlar va yo‘llar qurish, ekoturizmni va baliqchilikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar aholi farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ularning tashabbuskorlari bo‘lgan chet ellik investorlar va mahalliy tadbirkorlar bilan suhbatlashdi. Loyihalarining iqtisodiy samaradorligi haqida fikr almashilib, ularni jadallashtirish, tadbirkorlarga qo‘shimcha

sharoit yaratish bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

So‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Xiva tumanidagi Istiqlol mahallasiga bordi.

Mahallada 3 ming 200 nafarga yaqin aholi yashaydi. Bu yerda 10 ta ishlab chiqarish korxonasi, 30 ga yaqin xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, yondosh hududda fermer xo‘jaliklari mavjud. Odamlar asosan tadbirkorlik va dehqonchilik bilan shug‘ullanadi.

Yaqinda mahalla idorasi binosi ta‘mirlanib, to‘liq jihozlandi. Hududdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab va tibbiyot maskanida barcha sharoit bor.

Mahalla faollari Prezidentimizga odamlarning turmush tarzi, daromadi, yoshlarning muvaffaqiyati haqida so‘zlab berdi. Mahallada ishsiz aholini doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolar bilan individual ishlash tizimi samara bermoqda. Ishsizlarga dehqonchilik uchun yer berish tajribasining Xorazm uchun ahamiyati kattaligi aytiladi.

O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdaqi farmoniga muvofiq, mahalla institutining jamiyatimizda va aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatidagi roli oshirildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat “mahalla yetiligi” tashkil etildi.

Ushbu tizim vakillari bilan muloqotda xalqni rozi qilishda mahalla tizimidagi samarali faoliyat, hamjihatlik muhimligi qayd etildi. Bunda quyi bo‘g‘indagi davlat vakillari o‘zlariga berilgan vakolatdan foydalanib, odamlarni rozi qilishi kerakligi ta’kidlandi.

Viloyatda ishsizlikni kamaytirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish doimiy vazifa ekanini qayd etildi. Davlatimiz rahbari mahallalarda bo‘lganida biror xonadonda mehmon bo‘lishi yaxshi an‘anaga aylangan. Bu odamlar bilan yanada yaqin bo‘lib, samimiy suhbatlashishga xizmat qiladi.

Bu gal ham shunday bo‘ldi. Prezident mahallada yashovchi Sibirjon Matjonov xonadoniga tashrif buyurdi. Oila boshlig‘i qishloq xo‘jaligi ilmini yaxshi biladi. Xonadon sohiblari mo‘jazzgina tomorgada issiqxona qurib, qulupnay yetishtiradi. Shuningdek, uy sharoitida baliqchilikni yo‘lga qo‘ygan. Parvarishi qilinayotgan parranda – yuzdan ortiq tovuq, mingga yaqin bedana oilaga qo‘shimcha daromad keltirmoqda. Suhbatda aholini tadbirkorlikka jalb etish, yoshlarni mehnatga o‘rgatib, kasb berish muhimligi, buning uchun davlat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilishi ta’kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrif chog‘ida “Voltaia” kompaniyasi tomonidan quvvati 100 megavattlik quyosh elektr stansiyasi qurilishini boshlash marosimi bo‘ldi.

Ma‘lumki, davlatimiz tomonidan qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib, katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi uch yilda hududlarda birgina quyosh va shamol generatsiya quvvatlarini ishga tushirish uchun 2 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 2,6 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi.

Yana bir muhim jihati, bu loyihalar Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Fransiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar bilan sheriklikda amalga oshirilayotir.

Marosimda davlatimiz rahbari bu sohaning strategik ahamiyatini qayd etdi.

— Energetika sanoatida barqarorlikka erishish global integratsiya sharoitida har bir davlatning strategik maqsadi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi generatsiyalar — zamonaviy taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda kuch-quvvat bo‘ladigan asosiy “drayver”lardan biridir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muqobil energetika hisobiga bu yil respublikaning elektr generatsiyasida “yashil energiya” ulushi 15 foizga yetishi ta’kidlandi. 2030-yilga borib, aholisi 40 milliondan ortadigan Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan energiyani 40 foizini “yashil energiya” hisobidan qoplash maqsad qilingan.

Bu borada aholi manfaatdorligini oshirish uchun o‘tgan yili “Quyoshli xonadon” dasturi boshlandi. 14 milliard so‘m imtiyozli resurslar ajratildi, soliq imtiyozlari berildi. Shuningdek, ehtiyojdan ortiqcha elektrni davlat tomonidan kafolatli xarid qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

## Iftixor

# YANGI ZAMON KO‘PRIGI

Sirojiddin SAYYID,  
O‘zbekiston xalq shoiri

Qani shoir, zamon yukin sen ham ildam orqala,  
Zamonangdan bir qadam ham qolma aslo orqada.

Kecha-kunduz tinim bilmas, zo‘r shiddat, guldurosi,  
Bedor bo‘l der, bedor bo‘l der, bedor zamon daryosi.

O‘kizdaryo, Amudaryo, Jayhundaryo, jon daryo,  
Qadim elga o‘zingdirsan qadim shara-f-shon daryo.

Bir yon Xorazm eli-yu, bir tomon — Qoraqalpog‘,  
Uch ming yillik manzil bo‘yo u qirg‘oq to bu qirg‘oq.

Qo‘sh sohilda sabrlari jarlar kabi yemrilgan,  
Asrlarkim, ikki elat bir-biriga termilgan.

Oraliqda oqqan daryo go‘yo hajr-u firoqdir,  
Qosh-u ko‘zdan yaqinrog‘-u, asrlarcha yiroqdir.

Ziddiyatga to‘liq dunyo, nizolarga — dahri dun,  
Yarim dunyo bag‘riqonu, yarim dunyo — jigarxun.

Bizning maqsad ezgulikdir, to‘ldirgaymiz kamini,  
Xushmujdalar ko‘msin deymiz butun ro‘yi zaminni.

Har tong, har on yetkizgaydir har bir uchgan qush xabar,  
Bu tong sahar Xorazmdan keldi yangi xushxabar:

Elning orzu-armonlari yana bir bor uyrimish,  
Amudaryo uzra ulkan yangi ko‘priklarni qurilmish.

Dilimizda, tilimizda faxr-u g‘urur, shukrona,  
“Hayyo-huyt” deb Xorazmga tomon bo‘ldik ravona.

Hali Mo‘ynoq hayratlarin sehri tarqalmay turib,  
Qarshimizdan bir mo‘jiza chiqdi ozod qad kerib.

Bir ko‘prikkim, andozasi bo‘lmagan bu aroda,  
Asrlarni, davrlarni bog‘lagan bir ma‘voda.

Shovot tomonlardan kelsang dilda jo‘shib g‘ayratlar,  
Borlig‘ingni chulg‘ab olar zavq-u shavq va hayratlar.

Qadim tuproq, tug‘laring ham tug‘rolaring bor bo‘lsin,  
Sulton Uvays tog‘laring ham Kubrolaring bor bo‘lsin!

Beruniyning, Xorazmiyning arvohlari shundadir,  
Ogahiyning bedor, ogoh nigohlari shundadir.

Sen o‘zingsan bulbullarga havo baxsh etgan diyor,  
Maxtumquli Firog‘iyga navo baxsh etgan diyor.

Ajiniyoz bobolarning xuddi she‘r, laparlari  
Misol ketar kelajakka temir bo‘l shapallari.

Qolgan gapni mayli endi Berdax bobo aytсинlar,  
Poyezd minib, Xevohlarni bir sayr etib qaytsinlar.

Asrlarday kechdi xalqim, nursiz oy-u yillaring,  
Avaz O‘tarlarning o‘tdi, o‘tdi lbroyimlaring.

San‘atingni bor olamga ko‘priklarni o‘zi haq,  
Ey, dunyoga Komiljonday hofizlarni bergan xalq,

Hali bunga “chug‘ur-chug‘ur” sayyohlarning kelgaylar,  
Yarqiragan vagonlarda saboldaray yelgaylar.

Ikki millyon yo‘lovchining quvonchin tasavvur qil,  
Tasavvur qil, so‘ng bekatda o‘ltirib tafakkur qil.

Bir ko‘prikkim, karvonlarning davronlarga qorishgay,  
To‘rt millyonli elning ko‘ngli bir oftobday yorishgay.

Millat otasining noxos ko‘zlarida balqqan yosh,  
Bu ming yillik armon erur, bu bir asrlilik bardosh.

Qani shoir, zamon yukin sen ham ildam orqala,  
Zamonangdan bir qadam ham qolma aslo orqada.

Yaqinroqdir qosh-u ko‘zdan o‘g‘il-qizning kiprigi,  
Yangi zamon ko‘prigi bu! Yangi zamon ko‘prigi!

Vatan ig‘vogarlarga mening aytar gapim bor:  
Bizda maqsad ko‘priklarni tayanchlari ustuvor.

Hurmat uchun otdan tushib, ta‘zim aylab kutardi,  
Sulton Jaloliddin bundan ot yetaklab o‘tardi.

Ko‘rib yangi binolarin Yangi zamon me‘morin,  
Ne deb rivoyat so‘ylardi Islomxo‘ja minorini?

O‘ylamangkim, manzillarga qurilgan ko‘prikdir bu,  
Ko‘ngillardan ko‘ngillarga qurilgan ko‘prikdir bu.

Kecha-kunduz tinim bilmas zo‘r shiddat, guldurosi,  
Bedor bo‘l der, bedor bo‘l der, bedor zamon daryosi.

Inson umri garchi bir xas, misoli bir kiprikdir,  
Bir avlodni ming avlodga bog‘laguvchi ko‘prikdir.

Siz ham Zamon Me‘moriday me‘mor bo‘ling, eldoshlar,  
Bedor bo‘ling, bedor bo‘ling, bedor bo‘ling, eldoshlar!

2024-yil 1-mart, 44-son

# MUSTAHHAM ISHONCH VA DO‘STLIK, OG‘ZIBIRLIK VA HAMKORLIK RAMZI

## Boshlanishi 1-betda

Bu o‘z samarasini bera boshladi. Jumladan, Xorazmda ham 2 mingdan ziyod xonadon va 855 ta tadbirkorlar 15 megavattli quyosh panel-larini o‘rnatib, ular tomonidan ehtiyojidan ko‘p ishlab chiqarilgan 320 ming kilovatt-soat elektr energiyasi davlat tomonidan sotib olindi.

Endi bu sohada yana bir majmua — Fran-siyaning “Voltalia” kompaniyasi tomonidan Tuproqqal’a tumanida quyosh fotoelektr stansi-yasi qurilishi boshlanmoqda.

Bu Xorazmdagi ilk shunday yirik loyiha bo‘ladi. Uning natijasida yiliga 254 million ki-lovatt-soat “yashil energiya” ishlab chiqariladi. Bu esa Xorazm viloyati yillik elektr energi-yasi iste‘molining 11 foizini qoplaydi. Ushbu stansiyan yil yakunigacha tarmoqqa ulash re-jalashtirilgan.

Umuman bu loyiha ishga tushsa, Xorazm viloyatida elektr energiyasi ishlab chiqarish qu-vatlari 30 foizga oshib, 424 megavattga yetadi. Xususan, Tuproqqal’a tumanining elektrga bo‘l-gan yillik 135 million kilovatt-soat talabi to‘liq qondiriladi.

Shu bilan birga, iste‘molardan ortgan 40 foiz energiyani so‘g‘shni tumanlarga uzatish imkoni-yati paydo bo‘ladi. Ya’ni 85 ming xonadonni elektr energiyasi bilan barqaror ta‘minlashga erishiladi.

Eng muhimi, ushbu loyiha orqali 76 million metr kub tabiiy gaz tejalandi, atmosferaga 106 ming tonna zararli moddalar chiqishining oldi olindi.

Yana bir e‘tiborli tomoni, mazkur loyiha doirasida ilk bor agrovoltaika tajribasi qo‘llana-di. Bu bir maydonning o‘zida energiya va qish-loq xo‘jaligini birlashtirish usuli bo‘lib, quyosh panellari ostida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi.

Davlatimiz rahbari bunday innovatsion loyi-halar O‘zbekiston bilan Fransiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga xiz-mat qilishini ta’kidlab, investor va muhandislar-ga minnatdoriik bildirdi.

— Barchangizni nafaqat Xorazm viloyati, balki butun mamlakatimiz iqtisodiyotiga yangi

ruh va nafas olib kiradigan mana shunday yangi quvvatlar bilan tabirklayman, — dedi Prezident.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida “Voltalia” kompaniyasi bosh direktori Sebastyen Kler bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Fransiyaning ushbu kompaniyasi qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi inshootlarni qurishda boy tajribaga ega. Hozirda dunyoning 20 mamlakatida umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda.

Uchrashuvda o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar tu-fayli keng qamrovli tus olgan O‘zbekiston bilan Fransiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti 2022-yil noyabr oyi-da Fransiya-ga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya man-balari sohasida hamkorlik yuzasidan kelishuv-larga erishildi.

Shu ma’noda, “Voltalia” bilan hamkorlikda Tuproqqal’a tumanida quvvati 100 megavattli quyosh elektr stansiyasini barpo etish loyiha-si doirasidagi ishlar boshlanayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Kelgusida agro-voltaika yechimlarini joriy qilgan holda uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkinligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari kompaniya bilan ham-korlikni kengaytirish, shu jumladan, Xorazm viloyatida akkumulyatorlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va Buxoro viloyatida gibrid tur-dagi elektr stansiyasini qurish rejaralarini qo‘l-lab-quvvatlad.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi “Khorezm Insulation Group” qo‘sh-ma korxonasini borib ko‘rdi.

Mamlakatimizda bunyodkorlik ko‘lami keng. So‘nggi yillarda barcha loyihalarda ene-rgiya tejamkorlik vazifasi qo‘yilmoqda. Shu bois, bazalt xomashyosiga talab oshib borayotir. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda bunday mah-sulotdan tayyorlangan plitalarga yillik talab 80 ming tonna.

Shu jihatdan, “Khorezm Insulation Group” qo‘shma korxonasi bozor konyunkturasida asosida tashkil topdi, deyish mumkin. Qiymati 41 mil-lion yevrolik ushbu loyihada bazalt xomashyosi-dan issiqlik saqlovchi plitalar ishlab chiqariladi. Xomashyo Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qoratau tog‘idan olib kelinadi.

Korxonaning yillik quvvati 30 ming tonna bo‘lib, qurilish sanoatiga talab yuqori mahsu-lotlar yetkazib beriladi. Shuningdek, Rossiya va qo‘shni davlatlarga 10 million dollarlik eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Buning uchun Turkiya, Turkiya, Rossi-ya va Xitoy davlatlaridan zamonaviy uskunarlar keltirib o‘rnatilmoqda. Korxonada 300 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Prezident korxona bilan tanishar ekan, mah-sulotlar sifatini yanada yaxshilash, mahalliy-lashtirish darajasini oshirishga e‘tibor qaratish lozimligini ta’kidladi.

Ayni paytda bu yerda yiliga 15 ming tonna polipropilen va polietilen tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham ish olib borilmoq-da. Natijada 80 ta yangi ish o‘rni, yana 10 mil-lion dollarlik eksport quvvati yaratilishi mo‘ljal-langan.

Xorazm viloyatiga tashrifning birinchi kuni yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Energetika vazirligi, “O‘zkimyosanoat” AJ va yirik xori-jiy investitsiya kompaniyasi rahbariyati bilan yig‘ilish o‘tkazdi.

Xorazm viloyatida umumiy investitsiya haj-mi 10 milliard dollardan ziyod bo‘lgan yirik gaz-kimyoy loyihasini birgalikda amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Bo‘ljak quvvatlar yiliga 2,5 million tonna mahsulot ishlab chiqarishi va 3 ming ish o‘rni yaratishi kutilmoqda. Loyihani amalga oshirish muddati — 2024-2028-yillar.

Loyiha gaz-kimyoy tarmog‘i rivojiga yangi sur‘at bag‘ishlaydi va Yangi O‘zbekiston sanoat-ining flagmanlaridan biriga aylanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

**Ikrom AVVALBOYEV,**  
*O‘zA muxbiri*



**BU yilgi ko‘klamni xorazmliklar, ayniqsa, tuproqqal‘aliklar alohida ko‘tarinki kayfiyat bilan qarshiladi. Gap shundaki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida foydalanishga topshirilgan, qurilishiga start berilgan yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar, ularning aholi farovonligini oshirish, hudud iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni, ahamiyati juda katta. Shulardan biri — muqobil elektr energiyasini ishlab chiqarish loyihasi. 29-fevral kuni Tuproqqal’a tumanida Fransiyaning “Voltalia” kompaniyasi tomonidan 100 megavattlik quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlandi.**

Buning muhimlik jihati nimada desiz? Bilasiz, mamlakatimiz nufusi yildan-yilga oshib boryapti. Barcha soha va tarmoqlarda boshlangan tub yangilanish jarayonlari samarasi o‘laroq, sanoat kun sayin jadal rivojlanyapti, hatto chekka va olis qishloqlarda ham yangidan-yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilmoqda. Bularning barchasi yurtdoshlarimizni tadbirkorlikka keng jalb qilish, muqim ish va daromad manbai bilan ta‘minlashga xizmat qilishi barobarida, elektr energiyasiga talabni keskin oshiryapti. Bir tomondan talab muttasil oshayotgan, boshqa tomondan esa, an‘anaviy elektr energiyasi ishlab chiqarish xomashyo resurslari cheklangan, bunga qo‘shimcha ravishda ekologik muammolar bilan bog‘liq murakkab bir vaziyatda ushbu loyihaning qiymati va qimmatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Binobarin, mazkur quyosh elektr stansiyasi yaqin istiqbolida minglab xonadonlarga nur olib kiradi, qanchadan-qancha iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

Kezi kelganida ta’kidlash o‘rinliki, mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilyapti. Ayni yo‘nalishda katta dasturlar amalga oshirilayotgani ham diqqatga sazovor. Xususan, oxirgi uch yilda hududlarda birgina quyosh va shamol generatsiya quvvatlarini ishga tushirish uchun 2 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Fransiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarda bilan sheriklikda amalga oshirilayotgan loyihalar hisobiga Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 2,6 gigavattli 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi.

Endi gapni umumiylikdan aniqlikka yo‘naltirib, fikrimizni Xorazm viloyati misolida davom ettirsak. O‘tgan yili yurtimizda

boshlangan “Quyoshli xonadon” dasturi doirasida viloyatda 2 mingdan ziyod xonadon va 855 ta tadbirkor 15 megavattli quyosh panellarini o‘rnatdi. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi tashabbuskorlarning ehtiyojini qoplash bilan birga, iste‘molardan ortgan 320 ming kilovatt-soat elektr energiyasini davlatga sotish orqali qo‘shimcha daromad ham olib keldi.

Bevosita “Voltalia” kompaniyasi tomonidan Tuproqqal’a tumanida amalga oshirilishiga kirishilgan loyiha Xorazmdagi ilk yirik boshlanma hisoblanadi. Uning doirasida yiliga 254 million kilovatt-soat “yashil energiya” ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan.

— Xorazm so‘zi quyoshli o‘lka, degan ma‘noni anglatadi, — deydi shifokor Rashid Ro‘ziyoyev. — Shundan kelib chiqilsa, Tuproqqal’ada 100 megavattlik quyosh elektr stan-siyasi qurilishi mantiqiydir. Loyihaning muhim-ligiga o‘xtaladigan bo‘lsak, Xazorasap va Tuproq-qal’a tumanlarida 85 ming xonadonni elektr ene-rgiyasi bilan barqaror ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu — viloyat bo‘yicha yillik elektr energiyasi iste‘molining 11 foizini qoplaydi, degani. Bosh-qacha aytganda, loyiha natijasida viloyatda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 30 foizga oshib, 424 megavattga yetadi. O‘z navbatida 76 million metr kub tabiiy gaz tejalandi.

Loyihaning yana bir ahamiyatli jihati, mazkur stansiya ishga tushirilishi hisobiga atmosferaga 106 ming tonna zararli moddalar chiqishining oldi olindi. Ushbu stansiyaning yil yakuniga qadar tarmoqqa ulanishi kutilayotgani esa alohida e‘tirofga loyiq.

— Tuproqqal’a tumani iste‘molchilari hozir yiliga o‘rtacha 135 million kilovatt-soat elektr energiyasi iste‘mol qiladi, — deydi Energeti-ka vazirligi bo‘lim boshlig‘i Fitratillo Nabyev. — Demak, ushbu quyosh elektr stansiyasining foydalanishga topshirilishi nafaqat tuman-

ning ichki ehtiyojini to‘liq ta‘minlaydi, balki iste‘molardan ortgan 40 foiz energiyani qo‘shni tumanlarga uzatish imkoniyati paydo bo‘la-di. Tumanda quyosh radiatsiyasi yaxshi, cho‘l hudud keng bo‘lgani hisobiga ushbu tabiiy im-koniyat va bo‘sh yerlardan samarali foydalanish maqsadida mazkur loyiha uchun aynan Tup-roqqal’a tumani tanlandi.

Yana bir e‘tiborli tomoni, ushbu loyiha doirasida ilk bor agrovoltaika tajribasi qo‘llanadi. Bu bir maydonning o‘zida energiya va qishloq xo‘jaligini birlashtirish usuli bo‘lib, quyosh panellari ostida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi.

— Biz Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan loyihalarni imkon qadar tez amalga oshirish masalasini muhokama qildik, — deydi “Voltalia” kompaniyasi bosh direktori Sebastyen Kler. — Kompaniyamiz dunyoning 20 davlatida o‘z loyihalarini faol amalga oshiryapti. Shu kungacha 9 gigavattlik quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalari loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirganmiz. Bu kompaniyamizning O‘zbekistondagi birinchi loyihasi va shu bois, biz uchun juda muhim ahamiyat ega. Tuproqqal’adan tashqari yurtingiz bilan bog‘liq yana 2 ta rejamiz bor. Ana shulardan biri agrovoltaika loyihasi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston muqobil energetika yo‘nalishida juda tez rivojlanyapti va yaxshi ko‘rsatkichlarga ega. Bunga to‘g‘ri qarorlar va qabul qilinayotgan hujjatlar asos bo‘lmoqda.

Umuman olganda, muqobil energetika hisobiga bu yil mamlakatimizning elektr generatsiyasida “yashil energiya” ulushi 15 foizga yetkaziladi. 2030-yilga borib, iqtisodiyotimiz uchun zarur energiyaning 40 foizini “yashil energiya” hisobidan qoplash maqsad qilingan.

Bahor yasharish, yangilanish fasli. U o‘zi bilan yangi umidlar, ulkan maqsadlar, so‘nmas shijoat, kuch-g‘ayrat olib keladi. Xorazmliklar uchun bu bahor, tom ma’noda, butun viloyat ahlining, hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotining yangi va shiddatli rivojlanish davriga mustahkam poydevor qo‘yilgani, tub bulirish yashasga asos yaratilgani bilan tarixiy ahamiyatga egadir. Ha, Xorazmga bahor keldi, o‘zi bilan xayr-baraka, farovonlik, katta imkoniyatlar, ertangi kunga mustahkam ishonch olib keldi.

**Avaz ISROILOV,**  
*journalist*

## Taraqqiyot yo‘li

Gapni nimadan boshlasak ekan. Ibroyim Yusupning satrlaridanmi: “El mehri so‘nmas yuzingdan, Ulug‘ daryoyi azimdan, Qoraqalpoq, Xorazmdan, Esar Jayhun shamollari?”. Yo bo‘lmasa, Omon Matjonning “Ochil, ey gul, gul vaqting bo‘ldi, Uyg‘on, ey dil, dil vaqting bo‘ldi”, degan chorlovidanmi?! Har ikkisi ham yarashadi, axir bugun qalbimiz jo‘shib turibdi. Ona Amudaryo kabi mavjlanib, to‘lib turibdi.

## OG‘ZIBIRLIGIMIZ RAMZI



## QADDIMIZ BALAND, GAPIMIZ TETIK, KO‘NGLIMIZ TO‘Q

— Bugun qoraqalpoq yoshlarining ham shijoati katta. Maqsadlari ulkan, keng dunyoga bo‘ylamoqda. Bu o‘z-o‘zidan shunday bo‘lib qolgani yo‘q. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qoraqalpoq yoshlariga alohida e‘tibori va g‘amxo‘rligi samarasi tufayli bizning qaddimiz baland, gapimiz tetik, ko‘nglimiz to‘q.

Amudaryo uzra yangi ko‘prik qurilgani bizga ham katta quvonch bag‘ishladi. Boisi, bu ko‘prik, avvalo, bizning kelajagimiz uchun xizmat qiladi. Xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi mana shunday yangiliklardan mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari “Yangi ko‘prik mustahkam ishonch va do‘stlik, og‘zibirlik va hamkorlik ko‘prigidir”, deya alohida ta’kidladi.

Biz, yoshlar ham ko‘prik yurtimiz rivojiga, ezigulikga uzoq yillar xizmat qilishiga ishonamiz, — deydi **Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘ davlat universiteti talabasi Oyjamol Qaliboyeva**.

# QALBIMIZ JO‘SHIB TURIBDI, ONA AMUDARYO KABI MAVJLANIB, TO‘LIB TURIBDI

## O‘TGAN ASRDAGI ORZUMIZ AMALGA OSHDI



## YANGI TRANZIT YO‘NALISHLARI

— Ushbu transport-kommunikatsiya inshootining ishga tushirilishi qurilish materiallari va boshqa turdagi mahsulotlarni tashish xarajatlarini ham kamaytiradi. Bu esa yangi ijtimoiy obyektlar va infratuzilmalarni qurishga sarflanadigan mablag‘lar tejalisini ta‘minlaydi. Ko‘prik ikki tarafga qarab bir vaqtning o‘zida 24 juft poyezdni o‘tkazish imkoniyatiga ega. Bu esa mahalliy yuklarni tashish hajmini yiliga 2 barobar oshirish, tashish tannaxrini 2 marta kamaytirish imkonini beradi. Ushbu temir yo‘l orqali Qozog‘iston va Rossiyaga ham yangi yo‘nalishlar ochiladi.

Albatta, bunday tarixiy qurilishda ishtirok etganimizdan faxrlanamiz. Biz bunyod etgan ko‘prik asrlar davomida xalqimizga beminnat xizmat qilishiga ishonamiz, — deydi **13-ko‘prik qurilish otryadi ish yurituvchisi Azamat Rahimov**.

\*\*\*

Sirasini aytganda, mazkur ko‘prikning foydalanishga topshirilishi nafaqat aholi farovonligiga xizmat qiladi, balki Qoraqalpog‘iston va Xorazm ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham keng yo‘l ochadi.

Biz gapni bejiz she‘riy nasimlar bilan boshlamadik. Tabiatimiz shunaqa: Amu sohillarida yashagan elimiz



qo‘shiq, she‘r, doston-u jirovlar shaydosi. Agar buni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib, qalban his qilmoqchi bo‘lsangiz, mayli Xorazmga, mayli Qoraqalpog‘istonga keling. Biz sizni, albatta, yangi ko‘prik tomon boshlaymiz. Shunda uning ikki tomoniga ham quloq tutsangiz, baxt ohangi to‘la quvnoq ashulalar, jirovlarini eshitasiz. Ularda ishoralar bor: bugun yangi O‘zbekiston yangi marmalarni zab etmoqda. Bunyodkor va donishmand xalqimiz o‘z

hayotini farovonlik o‘zani sari burgan. Bu ishlar bundan keyin ham bardavom va barakali bo‘lishiga ishonamiz. Buning uchun bizda tarixiy quvvat, yuksak matonat va birdamlik ruhi bor.

**Minajatdin QUTLIMURATOV,**  
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

Bugungi kunda barcha yo‘nalishlarda ochiq-oshkoralikni ta‘minlash borasida jamoatchilikda ayrim savol yoki e‘tirozlar ham yo‘q emas. Aytaylik, sud jarayonlarini yoritib borish masalasida. To‘g‘ri, sudlarning ham qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yilgan o‘z talablari bor. Bular qanday talablar, ular nima uchun kerak, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga zid emasmi?

## So‘z erkinligi

# SHAFFOFLIK EHTIYOJI, OCHIQLIK MAS’ULIYATI

Mamlakatimizda so‘z erkinligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu, avvalo, aholining konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, boshqa tomondan esa, jamiyatda kuchli jamoatchilik nazoratini qaror topirish orqali korrupsiya, mahalliychilik, budget mablag‘larini talon-taroj qilish kabi illatlarning oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.



Shu bois ham ochiqlik va shaffoflik, so‘z erkinligini ta‘minlash yangi O‘zbekistonda barpo etish. Uchinchi Renessans paydavorini yaratish yo‘lida olib borilayotgan davlatimiz siyosatida muhim o‘rin egallamoqda. Mamlakatimizni yaqin va o‘rta istiqbolida rivojlantirishga doir muhim strategik hujjatlardan ushbu talabning muqim o‘rin olayotgani boisi ham shunda.

Jumladan, 2024-yilga mo‘ljallangan davlat dasturi bu borada alohida — erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish maqsadi belgilangan.

Lekin bugungi kunda barcha yo‘nalishlarda ochiq-oshkoralikni ta‘minlash borasida jamoatchilikda ayrim savol yoki e‘tirozlar ham yo‘q emas. Aytaylik, sud jarayonlarini yoritib borish masalasida. To‘g‘ri, sudlarning ham qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yilgan o‘z talablari bor. Bular qanday talablar, ular nima uchun kerak, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga zid emasmi?

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi raisi Xolmo‘min YODGOROV** bilan suhbatimiz bugunning muhim mavzusi — sud mustaqilligi, sudya daxlsizligi va so‘z erkinligi, ayni omillarning xos xususiyatlari va qirralari haqida bo‘ldi.

— **Xolmo‘min Buvrabojevich, tizimda ochiqlik va shaffoflik fuqarolarning sudga nisbatan ishonchini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, uning yana qanday ijobiy tomonlarini ko‘rasiz?**

— Savolingizga javob berishdan oldin, avvalo, shuni ta‘kidlash o‘rinliki, fuqarolik jamiyatida so‘z erkinligini samarali ta‘minlash qanchalar muhim bo‘lsa, sud mustaqilligi, sudyalari daxlsizligining ahamiyati ham undan kam emas. Jamiyat hayotida ochiqlik va shaffoflik o‘z ifodasini topar ekan, media

maydonida sud tizimi faoliyatiga oid axborotlar salmoqli o‘rin egallashi aniq.

Endi bevosita savolingizga qaytadigan bo‘lsak, asosiyini aytgandiz. Bundan tashqari, tizimdagi ochiqlik va shaffoflik inson huquqlarini ta‘minlashning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Tizimda korrupsiyaning oldini olishda ham ayni omilning ahamiyati katta.

Shuningdek, Sudyalari o‘dobi kodeksida qayd etilganidek, sud faoliyati samaradorligi jamiyatning unga bo‘lgan ishonchiga va sud tomonidan qabul qilingan qarorlarning huquqiy asoslarini to‘g‘ri tushunishiga ham bog‘liq. Buning uchun esa keng jamoatchilikka sudlar faoliyati to‘g‘risida xolis, ishonchli va tezkor axborotlar berib borilishi kerak. Bunda ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyos. Shu bois, Sudyalari oliy kengashi faoliyatini tartibga soluvchi qonunda nainki Kengash, balki sud tizimi faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga oid chora-tadbirlar ko‘rish mazkur konstitutsion organning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur qonunda shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikka oid norma ham o‘z ifodasini topgani bejiz emas.

— **Hamkorlik masalasida nima deysiz?**

— Bu izchil davom etadigan jarayon, samara shunda ko‘zga tashlanadi. Har yili Kengash tashabbusi va Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan hamkorlikda jumalist va blogerlar uchun bepul ikki haftalik o‘quv mashg‘ulotlari tashkil qilib kelinmoqda. Yakunda ularga sertifikat va “Sudlar faoliyatini yoritishning huquqiy asoslari va o‘ziga xos jihatlari” nomli huquqiy qo‘llanma taqdim etiladi. O‘quv-mashg‘ulotlarida shu paytgacha 120 nafardan ziyod jumalist va blogerlar ishtirok etdiki, ular safi kengayayotganidan xursandmiz, albatta. Chunki sud ishlarini yoritishning nozik va hassos jihatlari bor. Bunda ishdagi tarafdagi sha‘ni va

qadr-qimmatini, shaxsiy hayotiga oid ma‘lumotlar muhofazasidan tortib, sudga ta‘sir o‘tkazmaslik juda muhim hisoblanadi.

— **Bugungi kunda axborotning kuchi va quvvati haqida gapirishga hojat yo‘q. Axborot makonidagi sudlar faoliyatiga oid turli xabarlar sud ishiga ta‘sir o‘tkazish ehtimolini keltirib chiqarishi qanchalar haqiqatga yaqin?**

— Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, birinchi navbatda, muloqot va yangilik tarqatish vositasi hisoblanib, jamoatchilik fikrini juda qisqa vaqtda shakllantirishi inkor etib bo‘lmaz holat. Shu bois, sudlarda ko‘rilayotgan va hali nihoyasiga yetmagan ishlar haqida oldindan bildirilayotgan munosabat va turli bashoratlar ma‘lum bosimlar paydo qilishi, hatto yakuniy qarorga ta‘sir etishi ehtimoli yuqori. Sudga ta‘sir o‘tkazish uchun ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanishga urinish holatlari ham yo‘q emas. Vaholanki, sud ishlariga har qanday ko‘rinishda ta‘sir o‘tkazishga urinish jinoiy javobgarlikgacha bo‘lgan choralar ko‘rishga sabab bo‘lishi qonunlarda belgilab qo‘yilgan. Katta-kichik mansabdor shaxslardan oddiy fuqarogacha sudyalarni hurmat qilishi, ularni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi xatti-harakatlar qilish mumkin emasligi xususida ham shunday deyish mumkin.

— **To‘g‘riku-ya, ammo sud hukmi yoki qaroridan barcha taraf birdek rozi bo‘lmagligi tabiiy-ku?**

— Amaldagi protsessual qonun-chiligimizda sud qaroriga nisbatan shikoyat berish tartibi belgilangan. Norozi taraf o‘z vajlarini ko‘rsatgan holda apellyatsiya va kassatsiya instansiyasiga hamda taftish tartibida sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin. Mazkur instansiyalarda ishlar ochiq (*qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno*) sud majlislarida ko‘rib chiqiladi, keltirilgan barcha vajlar o‘rganilib, quyi sud qarorlariga huquqiy baho beriladi. Shuning uchun ham sud instansiyalari mavjud. Ya‘ni quyi sud qarorlariga faqat va faqat yuqori sud instansiyasi huquqiy baho beradi. Boshqa biror-bir jamoat yoki davlat tashkiloti yoxud mansabdor shaxs, fuqaro, jumalist yoki bloger sud qaroriga baho berishga vakolatli emas.

— **Tushunarli xatti-harakatlar taraflarda shubha tug‘dirmasmi?**

— Bunday holatda sudyaga raddiya bildirish mumkin. Raddiya tegishli tartibda ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, sudyaning



Mashhur italyan faylasufi Chezare Bekkarianing shunday gapi bor: “Odil mahkamada rasmiyatchilik va dabdaba shuning uchun ham zarurki, u hakamning bedodligiga o‘rin qoldirmaydi, shunda xalq mahkama betartib, nohaqlik bilan emas, balki mustahkam qoidalar asosida ish ko‘rishini anglaydi”. Faylasufning mazkur gapini tor ma‘noda tushunib, talqin qilmaslik kerak.

harakatidan norozi taraf tegishli sudyalari malaka hay‘ati, Sudyalari Oliy malaka hay‘ati yoki Sudyalari oliy kengashiga murojaat qilishi mumkin. Shikoyat tegishli tartibda, lozim topilgan holatlarda xizmat tekshiruvi o‘tkazish orqali o‘rganiladi.

— **Siz aytgan tartib bo‘yicha qancha fuqaro murojaat qilgani-yu nechtesi tasdiq‘ini topgani, natijada sudyalarga nisbatan qanday choralar ko‘rilgani haqida so‘ramaymiz. Bu haqda Kengashning veb-saytiga joylashtirilgan 2023-yilgi faoliyatga oid “Axborotnoma”ning elektron shakli orqali tanishdik. Savol boshqacharoq: siz yuqorida keltirgan tartiblarga rioya qilinsa, jumalist yoki bloger o‘zi ishtirok etgan sud ishi haqida qachon yozishi mumkin?**

— Siz bilan hali sudda ko‘rilishi boshlanmagan yoki sudda hali nihoyasiga yetmagan

ishlar bo‘yicha tarqatilayotgan axborotlar haqida gaplashyapmiz. Mazkur jarayonda muxbir yoki bloger bir taraf manfaatiga xizmat qiluvchi axborot tarqatish, kim haq, kim nohaqlik haqida gapirish, sudyaning shaxsiya nisbatan hurmatsizlik qilishi qonunon mumkin emasligiga urg‘u berilayotgani sababi ham shunda. Hech kim ochiqlik va oshkoralikka qarshi emas. Qachonki sud qarori qonuniy kuchga kirgach, tarafdagi sha‘n va qadr qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan holda, jumalist yoki bloger o‘zi ishtirok etgan sud ishi haqida o‘z mulohazalarini shaxsiy fikri sifatida ommaga bildirishi mumkin. Qaniydi, sud protsesslari unda ko‘rilgan nizo, huquqbuzarlik yoki jinoyatning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillar tahlil qilinib, boshqalarga saboq va tegishli xulosa chiqaradigan holda yoritib borilsa, bu jamiyat uchun ham foydali bo‘lar, tabiiyki, nizolar va jinoyatlarning kamayishiga olib kelardi. Shuning uchun ham sud protsesslarini yoritish masalasiga xususiy, kimningdir manfaati nuqtayi nazaridan emas, balki umummanfaat nuqtayi nazaridan qarash lozim.

Bugun o‘zini bloger hisoblayotganlarning aksariyati hali yakuniy sud qarori chiqmasdan turib, bir taraf manfaatida sudga nisbatan turli shakllarda bosim o‘tkazish, sudyalari sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish, eng yomoni, sudga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi assosiz ma‘lumotlarni tarqatayotgani noqonuniy va achinarlidir. Bunday holatlar bo‘yicha Kengash tomonidan prokuratura organlariga bir nechta taqdimnomalar kiritildi. Natijada nafaqat ma‘muriy huquqbuzarlikka oid, balki jinoyat ishlari ham qo‘zg‘atildi.

— **Keyingi paytlarda ayrim saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarda sud protsessida sud-yalar tomonidan ochiqlik ta‘minlanmayotgani, sud jarayonlarini video tasvirga olishga ruxsat berilmayotgani haqida xabarlar ko‘payib qoldi. Bunday xabarlar jamoatchilik, to‘g‘rironi, tarmoq obunachilarining munosabati ma‘lum?**

— Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, raislik etuvchi sudya ko‘rilayotgan ishni video tasvirga olish masalasida tarafdagi fikrini so‘rashga majbur. Ishdagi tarafdagi birortasi bunga qarshilik bildirsa, sud bu boradagi iltimosnomani rad etishi tabiiy. Chunki taraf ko‘rilayotgan ishda qaysi maqomda (sudlanuvchi, jabrlanuvchi, huquqbuzar, da‘vogar yoki javobgar va hokazo) bo‘lishidan qat‘i nazar, u — inson, amaldagi Konstitutsiya va qonunlarimiz uning sha‘ni, qadr-qimmatini himoya qiladi. Jinoyat sodir qilgan shaxs qonuniy jazosini oladi, lekin bu uni “sazoyi qilish” lozim, degani emas. Zero, jazo tayinlashdan maqsad o‘ch olishmas, balki uni qayta tarbiyalashdan iboratdir.

Ikkinchidan, sud protsessi video tasvirga olinishiga ruxsat bermaslik, bu sud majlisi yopiq o‘tkaziladi, degani ham emas, ya‘ni bu jumalist va boshqalarning ishtirok etishiga monelik qilmaydi.

Umuman, sud protsesslarini ommaviy yoritish masalasini o‘ylab ko‘rish lozimday. Chunki sud protsessi ommaviy (televideoniye, internet saytlari orqali) yoritilganda tomoshabinlar auditoriyasini cheklab bo‘lmaydi, ya‘ni uni kattalar bilan bir vaqtda yosh bolalar ham ko‘radi. Va, tabiiyki, holatga har kim o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib baho beradi. Ko‘rayotgan shaxslar, ayniqsa, yosh bolalar psixologiyasida shunday qilish mumkin ekan, degan noto‘g‘ri fikrlar ham paydo bo‘lish ehtimoli mavjud. Sud protsesslarini yoritish masalasiga o‘ta mas’uliyat va masalaning tarbiyaviy ahamiyatidan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

— **Javoblaringizda suhbat mavzusi bo‘yicha qonunchilikdagi talab va tartiblar alohida e‘tibor qaratayotganingiz tushunarli. Biroq ular e‘tiroz ohanglari ham yo‘q emas. Nega?**

— Bir gap borku, bemor og‘rigan joyidan shikoyat qiladi, salomatligini tiklash uchun sog‘ o‘zolarini maqtamaydi. Shu nuqtayi nazaridan, mavzu yuzasidan fikrlash ekanmiz, ko‘proq muammoga e‘tibor qaratilishi o‘z-o‘zidan ravshan.

Biroq bu bilan ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda faqat sud tizimining ijobiy taraflari yoritilishi kerak, degan fikr ilgari surilayotgani yo‘q. Jamoatchilik vakillari bilan muloqot, tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash samaradorligini yanada oshirish borasida qilinadigan ishlar yetarli, ayni jarayonda sudyalarga ma‘lum tavsiyalar berish ehtiyoji ham yo‘q emas. Bular rasmiyatchilik yoki dabdaba uchun emas, balki talabdan kelib chiqib amalga oshiriladigan sa‘y-harakatlardir.

Mashhur italyan faylasufi Chezare Bekkarianing shunday gapi bor: “Odil mahkamada rasmiyatchilik va dabdaba shuning uchun ham zarurki, u hakamning bedodligiga o‘rin qoldirmaydi, shunda xalq mahkama betartib, nohaqlik bilan emas, balki mustahkam qoidalar asosida ish ko‘rishini anglaydi”. Faylasufning mazkur gapini tor ma‘noda tushunib, talqin qilmaslik kerak.

— **Samimiy suhbattingiz uchun tashakkur.**

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri  
**Avazbek XUDOYQULOV**  
suhbatlashdi.

## “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

Yurtimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta‘minlash, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, kasb-hunarga o‘rgatish va tadbirkorligini rivojlantirish, turmush sharoitini yaxshilash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Prezidentimizning joriy yil 21-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 30-maqsadida yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o‘rgatish uchun “Qizlar akademiyasi” platformasini ishga tushirish belgilangan.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan paytda yosh xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga jalb qilish davr talabiga aylandi. Ushbu platforma ularning ilm-fan, innovatsion faoliyatning barcha yo‘nalishlarida bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda tajriba almashishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Davlatimizda olib borilayotgan muhim islohotlardan biri — xotin-qizlarni nafaqat oilada, balki jamiyatda ham o‘z o‘rnini topishi, iste‘dod va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishdan iboratligi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ushbu platformaning ahamiyatini anglash qiyin emas.

Mazkur platformani ishga tushirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri — xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori kasblarga o‘qitish.

Qayd etish kerakki, xalqimiz azaldan xotin-qizlarga alohida hurmat bilan e‘tibor qaratgan. Ayollarimiz avvalo, ona sifatida qadrlangan, e‘zozlangan. Sababi, bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham bevosita ularga bog‘liq.

Shuningdek, hujjatga muvofiq, “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘larini yoshlarni chet tillar va kasb-hunarga o‘qitish maqsadiga yo‘naltirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Ustoz” maxsus platformasi ham ishga tushirildi. E‘tiborli jihati, dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 250 ming yigit-qiz qamrab olinadi.

Xotin-qizlarga yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar ularni jamiyatda mustahkam o‘rin egallashi uchun puxta zamin yaratmoqda. “Qizlar akademiyasi” platformasi ham yosh xotin-qizlarning yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda daxldorlik hisssini oshirish, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyatda ayollar mavqeyini yuksaltirishni maqsad qilgani bilan ahamiyatlidir.

Xususan, xotin-qizlar talabini ta‘minlashga ko‘maklashish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish va o‘zini o‘zi band qilishga ustuvor ahamiyat qaratilgani bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi,



minglab ishsiz opa-singillarimiz doimiy ish joyiga, daromad manbaiga ega bo‘lishini anglatadi.

Joriy yilda bu ishlar yanada jadallashadi. Chunki davlat dasturida bu yo‘nalishdagi ishlar-ni yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha qator vazifalar o‘z aksini topgan. Jumladan, dasturda xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlariga o‘qitish orqali bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish hamda ular o‘rta-

sida tadbirkorlikni keng rivojlantirish masalasi belgilangan. Hujjatda yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o‘rgatish uchun “Qizlar akademiyasi” platformasini ishga tushirish, turli tanlovlar, loyihalar, o‘quv oromgohlari va stajirovkalar tashkil etish asosiy mezon etib belgilandi. Ushbu ezu ishlar aholi ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish va inson huquqlarini ta‘minlashda yana bir muhim qadam bo‘ladi.

Ma‘lumki, har qanday iste‘dod qo‘llab-quvvatlamasa, e‘tibor qaratilmasa, rivojlanmaydi. “Qizlar akademiyasi” platformasi bu borada ko‘plab ana shunday xotin-qizlarga asqotishi aniq.

— Mazkur platforma 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlarning ilmiy salohiyati, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim loyihalardan biri, — deydi Yoshlar ishleri agentligi bosh mutaxassisi Nilufar Matkarimova. — Bu loyiha orqali eng chekka hududlardagi tanlagan sohalari bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikмага ega bo‘lish istagini bildirgan qizlarga yetita modul asosida ma‘lumot beriladi. Platforma asosan, bugungi zamon talablaridan kelib chiqib yo‘nalishlarga bo‘lingan.

Modullar ham bevosita ta‘lim, huquqiy savodxonlik kabi sohalarga bo‘linadi. Jumladan, ta‘lim modulida qizlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va tadqiqotlar metodologiyasi asosida bilim olishi, tadqiqotchi sifatida faoliyatini davom ettirishiga ko‘maklashish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, biznes va tadbirkorlik yo‘nalishida qizlarning biznesdagi birlamchi bilimlarni egallashiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Bu sohalardan farqli ravishda platformada bevosita reproduktiv va salomatlik modullari ham bor. Bu modullar yosh qizlarimizda yuzaga

keladigan turli reproduktiv muammolar va ularning yechimi bilan bog‘liq axborotlarni o‘z ichiga oladi. Ana shu ma‘lumotlar asosida qizlarimiz hatto yu‘ sharoitida mustaqil ta‘lim olishi, bilimni yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu elektron platforma mobil aloqa ko‘rinishida ham tashkil etiladi. Ya‘ni qizlar o‘zlarining mavjud imkoniyatidan kelib chiqib, kompyuter va telefon qurilmalari orqali mazkur ma‘lumotlardan foydalanishi mumkin.

Xususan, ta‘lim, psixologiya, huquq, bandlik va tadbirkorlik, biznesni rivojlantirish kabi qator yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Har bir yo‘nalishda bepul darslar ham berib boriladi.

Qayd etish kerak, ayni paytda jamiyatimizda yosh xotin-qizlarning asosiy muammolaridan biri, bu — huquqiy savodxonlik yetishmasligi, davlatimiz tomonidan ular uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan to‘liq xabardor emasligidir. Shu ma‘noda, “Qizlar akademiyasi” platformasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha doirasida yosh xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatish borasida ham qator chora-tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan, IT, tadbirkorlik, marketing, psixologiya, notiqlik san‘ati kabi yo‘nalishlarda bepul tahsil olish yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda bilimni yangilab, kasbiy mahoratini oshirish, tajriba almashish har bir soha mutaxassisi uchun eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aynan shunday platformalarning tashkil etilishi yosh xotin-qizlarimiz uchun yangi bilimlar olish, turli tanlovlarda ishtirok etib, qobiliyatini ro‘yobga chiqarishiga, nufuzli tashkilotlarda amaliyot o‘tashi va keyinchalik ishga joylashishiga imkon beradi.

Xulosa o‘mida shuni aytish kerakki, ayollar nafaqat oila ravnaqi, balki jamiyat hayotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, turli sohalarda yuksak muvaffaqiyatlarga erishishi lozim.

Lutfulla SUVONOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

**Ko‘rsatkichi past bo‘lgan tadbirkorlar intizomli ishlayotganlar safiga kirish va ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lish uchun harakat qiladi. Adolatli reyting shubhali shartnomalar va sun‘iy raqobatga chek qo‘yadi, “soyada”gi firmalar ochiq ishlashga o‘tadi.**



## 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

# REYTING VA MAXSUS DASTUR

## TADBIRKORGA YENGILLIK VA QULAYLIK BERADI



**Xabaringiz bor, shu yilning 1-fevralidan e‘tiboran mamlakatimizda tadbirkorlarning barqarorlik reytingi yuritila boshlandi. Kelgusida katta samara keltirishi kutilayotgan mazkur reytingdan kim ko‘proq manfaatdor: tadbirkormi, soliq idorasimi yoki aholi? Quyida shular xususida fikr yuritamiz.**

**Abdurauf QORJOVOV,**  
*iqtisodiy sharhlovchi*

— Prezidentimiz buning ahamiyati haqida tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida aytgan edi, — deydi poytaxtimizning Olmazor tumanida faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkor Ergash Choriyev. — Shundan so‘ng mazkur reytingning mezonlari va tartib-tamoyillari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to‘lov intizomi, aholi bandligidagi o‘rni, ish haqi kabi mezonlar asosida toifalarga ajratildi. Ular soliq, adliya va sud organlari ma‘lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o‘z o‘rni va bahosini real vaqtda bilib borishi mumkin bo‘ladi.

Ko‘rsatkichi past bo‘lgan tadbirkorlar intizomli ishlayotganlar safiga kirish va ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lish uchun harakat qiladi. Adolatli reyting shubhali shartnomalar va sun‘iy raqobatga chek qo‘yadi, “soyada”gi firmalar ochiq ishlashga o‘tadi.

Shu jihatdan davlatimiz rahbarining joriy yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag‘ishlangan seminar-treningda Soliq qo‘mitasi raisi Sherzod Kudbiyevning ushbu fikrlari e‘tiborni tortadi:

— Tadbirkor biror talabga javob bermasa yoki muayyan shartlarni bajarmasa, unga nisbatan jazo choralari qo‘llanilardi. Endi dunyoqarashimizni o‘zgartirish yo‘lidagi birinchi qadam barqarorlik reytingini joriy etish

va tadbirkorlarni rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi.

Tadbirkorlik subyektlarini baholashda faoliyatni uzoq davom ettirish, soliq hisobotlarini belgilangan muddatda taqdim etish, soliqlarni o‘z vaqtida ixtiyoriy to‘lash kabi holatlar asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun soliq majburiyatlarini vaqtida va ixtiyoriy bajarish reytingda yuqori ball olishni kafolatlaydi.

Savdo-sanoat palatasi raisi o‘rinbosari Umid Safarovning ta’kidlashicha, ushbu reytingning baholash mezonlari 23 ta va ular umumiy, ballarni kamaytiruvchi va rag‘batlantiruvchi toifalarga bo‘lingan. Umumiy guruhda 10 ta mezon bo‘lib, har biriga 10 balldan, jami 100 ball yig‘ish mumkin. Masalan, korxona xodimining oyligi respublikadagi eng kam ish haqidani kam bo‘lsa, tadbirkorlik subyekti 5 balldan ayriladi. Oylik miqdori 25 foizga oshgan bo‘lsa 2 ball, 25 foizdan 50 foizgacha o‘sgan bo‘lsa 4 ball, 75 foizgacha 6 ball, 100 foizgacha bo‘lsa 8 ball, 100 foizdan yuqori bo‘lsa, 10 ball qo‘shib beriladi. Umumiy baholash mezonlarida soliq hisobotlari belgilangan muddatda taqdim etilgani uchun ham 10 ball beriladi.

Ikkinchisi, ballarni kamaytiruvchi guruh. Bunda 9 ta o‘lchov bor. Ularda qonunchilik talablari buzilgan yoki hisobotlarga qayta-qayta tuzatish kiritib taqdim etgan holatlar, bir hududdan boshqa hududga ko‘chish yil davomida ko‘payib ketgan jihatlariga baho beriladi. Yoxud soliq qarzdorligi tovar hisobidan undirilsa yoki tadbirkorlik subyektlarining kreditor qarzdorligini 12 oy davomida sud orqali undiruvga qaratilgan taqdirda baho 10 ballga kamaytiriladi.

Uchinchisi, rag‘batlantiruvchi 4 ta mezon, “Jitimoiy himoya yagona reyestri”, “Ayollar daftar”ga kirgan fuqarolarni ishga olgan va ular umumiy xodimlarining 10 foizidan ko‘proqni tashkil qilgan tadbirkorlik subyektlariga 5 balldan 10 ballgacha qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi ball beriladi. To‘rtta holatda esa, tadbirkor 45 ball yig‘ishi mumkin. Agar xodimlar soni o‘tgan hisobot davriga nisbatan (oyligi eng kam ish haqidani ko‘p bo‘lishi talabi bilan) 10 foizga orisa 2 ball, 20 foizga ko‘paysa 4 ball bilan baholanadi. Xodimlar soni 50 foiz va undan yuqori ko‘rsatkichga orisa, korxonaga 15 ball beriladi. Shu bilan birga, QQS bir oylilik soliq summasinging o‘rtacha miqdoridan 10 foiz oshiq to‘lansa, 10 ball bilan baholanadi. Xuddi shu tamoyil aylanmadan olinadigan soliqlar uchun ham belgilangan. Yana bir muhim jihati, tadbirkorlik subyektinging reytingi quyidagiga tushib qolsa ham unga nisbatan jazo chorasi qo‘llanilmaydi.

Tadbirkorning qandaydir kamchiliklari bo‘lib, past ball olsa, dastur nima sababdan

malakali mutaxassis” dasturini amalga oshirish g‘oyasi ilgari surilgan edi.

Bu maqsadga qanday erishish mumkin? Yig‘ilishda ushbu masala ustida muhokama ketar ekan, shunday raqam va dalillarga e‘tibor qaratilgandi. Oxirgi besh yilda yurtimizda tadbirkorlar soni 285 mingdan 590 mingga ko‘paydi. Bu — bitta tumanda 2,5 mingdan ortiq yoki bir mahallada 50 nafardan tadbirkorlar sinfi shakllandi, degani. Agar davlat bu tadbirkorlar bilan manfaatli hamkorlik qilib, ularni qo‘llab-quvvatlasa, joylarda bandlikni hal qilish imkoniyati ortadi.

Masalan, aholini kasb-hunarga o‘qitish uchun har yili davlat tomonidan 200 milliard so‘m ajratilyapti. Lekin bu mablag‘lar tadbirkor bilan bog‘lanmagan. Xuddi shunday, tadbirkor ham yiliga katta xarajat qilib, o‘zi uchun mutaxassis tayyorlashga majbur. Lekin bunda davlat qo‘llab-quvvatlovi yo‘q.

— Buning birdan-bir to‘g‘ri yechimi — tadbirkorning sharoit yaratib, ular bilan manfaatli hamkorlik qilish. Shu orqali ham bandlikni

**Aholini kasb-hunarga o‘qitish uchun har yili davlat tomonidan 200 milliard so‘m ajratilyapti. Lekin bu mablag‘lar tadbirkor bilan bog‘lanmagan. Xuddi shunday, tadbirkor ham yiliga katta xarajat qilib, o‘zi uchun mutaxassis tayyorlashga majbur. Lekin bunda davlat qo‘llab-quvvatlovi yo‘q.**

bunday ball olgani va kamchiliklar qanday bartaraf etilishini ko‘rsatib turadi. Bu shaffof reyting bo‘lib, tadbirkor o‘zi va kontragenti reytingda qancha ball to‘plagan va nima uchun shu ballni olganini ko‘rib turadi. U hisobot berganda yoki to‘lov qilganda ballari o‘zgarib boradi va bu jarayon onlayn tarzda kechadi.

Endi yuqorida urg‘u berilgan savolga kelsak. Reyting, deganda biror bir soha yoki faoliyatni nazorat qilish va baholash tushunilishini inobatga oladigan bo‘lsak, bundan, avvalo, shu soha vakillari, keyin boshqalar naf ko‘rishni kerak. Qolaversa, hozir aksariyat mutaxassislar berayotgan bahoga ko‘ra, ushbu tizim tadbirkor uchun o‘ziga xos oyna, kamchiliklarni ko‘rib, ularni bartaraf etish uchun katta imkoniyat hamdir. Kamchiliklarsiz, halol ishlaydigan ishlabarmon esa jamiyatga, iqtisodiyotga ko‘proq foyda keltiradi.

### Bandlik hamkorlikka bog‘liq

O‘tgan yilning 15-may kuni Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta‘minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida “20 ming tadbirkor — 500 ming

ta‘minlaymiz, ham malakali mutaxassis tayyorlaymiz, — degan edi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 12-iyundagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan uni amalga oshirishning maqsad va vazifalari, mas‘ullari belgilab berildi.

Ushbu hujjatlarga asosan, 2023-2024-yillarda jami 1 milliard dollar miqdorida kredit liniyasi ochiladi. Dasturga kiritilgan tadbirkorlar loyihalarini (moliya sohasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar bundan mustasno) amalga oshirish uchun 7 yilgacha muddatga 14 foiz stavkada ro‘yxatga muvofiq miqdorlarda ajratiladi. Tadbirkorning “amaliy monomarkaz” tashkil qilish va jihozlash hamda kasbga o‘qitish xarajatlari to‘liq qoplanadi.

Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlar uchun “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali ishchi” degan platforma (dastur) yaratildi. Unga

2 yil davomida faoliyat yuritib kelayotgan va davlat ulushiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlariga a‘zo bo‘la oladi. Mezonlarga to‘g‘ri kelgan tadbirkorning arizasi qabul qilinadi. Ariza ilovasida qaysi muddatda nechta ish o‘rni yaratishi borasida ma‘lumot bo‘lishi zarur. Ushbu grafikka binoan, hududdagi hokim yordamchisi bevosita joyiga chiqib loyihani o‘rganadi. O‘rganish natijalari asosida xulosa beriladi. Ijrobyi xulosa olgan tadbirkor va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari hamda hokim tomonidan shartnoma imzolalanadi.

Shuningdek, farmon va qarorda soliq, bojxona ma‘murchiligiga doir yengilliklar nazarda tutilgan. Xususan, bunday tadbirkorlar faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda ortiqcha to‘langan soliqlar tekshiruvsiz qaytarib beriladi. Kambag‘al oila a‘zosi ham daromad solig‘idan ozod qilinadi. Bojxona rasmiylashtiruvda “yashil yo‘lak” tartibi qo‘llaniladi.

Dasturga kirgan tadbirkorlar infratuzilma, yer va bino-inshootlar bilan ta‘minlashda qo‘shimcha yengilliklarga ega bo‘ladi. Masalan, yer va bino-inshootlarni xususiy lashtirishda bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratiladi. Qiymati 50 milliard so‘m dan yuqori loyihalar bo‘yicha infratuzilma xarajatlari to‘liq qoplanadi.

Ishlabarmonlarimiz uchun ana shunday qo‘shimcha yengillik va qulay imkoniyatlar nazarda tutilgan dastur ijrosi qanday ta‘minlanayapti?

Yaqinda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Statistika agentligi tomonidan 2023-yilda O‘zbekistondagi kambag‘allik darajasining tahlilida bu savolga doir ma‘lumotlar ham keltirilgan. Unda qayd qilinishicha, “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida 6745 tadbirkorlik subyekti bilan 455 ming kishi bandligini ta‘minlash bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan. Shu bilan birga, 472 mingta oliyviy tadbirkorlik loyihalariga 10 trillion so‘m imtiyozli kreditlar va 73 ming ishsiz fuqaroga 356 milliard so‘m subsidiya mablag‘lari ajratilgan. Mahallabay ishlash asosida 51 ming mikroloyiha amalga oshirilishi natijasida 206 mingta yangi ish o‘rni yaratilgan. 181 ming ishsiz fuqaro kasb-hunarga o‘qitilib, 183,8 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan.

Joriy yil 9-fevral kuni Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida “Kambag‘allikni qisqartirishda

tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

— Aslida, yangi qonun asosida Soliq kodeksiga kiritilayotgan tadbirkorlik subyektlariga ular yaratgan yangi ish o‘rinlari soniga qarab tegishli soliqlarni muayyan muddatlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilishi, shuningdek, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va ulardan olinadigan yer solig‘i pasaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanishini nazarda tutuvchi qo‘shimchalar Prezidentimiz, Vazirlar Mahkamasining tegishli farmon va qarorlarida o‘z ifodasini topgan, — deydi Oliy Majlis Senati a‘zosi Farmon Toshiev. — Endilikda senatorlar ma‘qullagan huquqiy normalar bilan ular qonuniy maqomga ega bo‘lyapti. Xususan, kodeksda ko‘zda tutilgan qo‘shilgan qiymat, foyda solig‘i hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari, barcha soliqlarni ular yaratgan yangi ish o‘rinlari soniga qarab bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilmoqda. Jumladan, 51 tadan 100 tagacha yangi ish o‘rni yaratilganda uch oygacha, 101 tadan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratilganda olti oygacha, 200 tadan ortiq yangi ish o‘rni yaratilganda bir yil davomida bo‘lib to‘lashi mumkin.

Qonun bilan “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida “Jitimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarni ishga qabul qilgan va ular jami ishsizlarning sonining kamida 20 foizini tashkil etgan yuridik shaxslarga mol-mulk solig‘i va yer solig‘idan imtiyoz berilmoqda. Korxona ishga qabul qilingan “Jitimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarga kamida 1 yil davomida har oy mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan ish haqini to‘lab, bandligini ta‘minlashi kerak.

Senatorlarimiz tomonidan ma‘qullangan ushbu qonun aholi bandligi o‘sishiga, kambag‘allikni qisqartirishga hamda kam ta‘minlanganlarni ishga qabul qilishda tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Soha vakillariga berilayotgan bu kabi yengillik va qulayliklar iqtisodiyotimizga munosib naf keltirishi aniq.

## Mulohaza

# NEGA KECHIKTIRILYAPTI?

## Yo‘l harakati qoidabuzarligini jarima ballari asosida baholash tartibi hali ham amalga kiritilmadi

**Kinolarda, urushlarda minglab odamlarning hayotdan ko‘z yumganini ko‘rganmiz yoki eshitganmiz. Bugun biz urush davrida emas, tinch zamonda yashaymiz, biroq yo‘llarda yuz berayotgan o‘limlar soni urushdagidan ancha kam emas. Hatto urushlardagi statistikani ham ortda qoldirmoqda. Birdan xayolingizga avtohalokat keldimi? Ha, anglaganingizdek, tinch zamonimizda avtohalokatlar odamlarning hayotlariga qimmat bo‘lyapti. Statistika ma‘lumotlarga ko‘ra, bu kabi holatlar tufayli mamlakatimizda yiliga kamida 6-7 ming kishi hayotdan ko‘z yummoqda.**

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatar ekansiz, avtohalokatlar haqidagi xabarlar tinmay aylanaveradi. Avvallari avariya haqida eshitsak, etimiz junjikardi. Hozir avtohalokatlar har kuni bo‘layotganidan, ular aks etgan lavhalarni ko‘raverганиmizdan diydami ham qotib ketaypti. Bunday hodisalarning oldini olish uchun har kuni haydovchilar ishtirokida profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda. Belgilangan tezlikka va qonun-qoidalariga amal qilib harakatlantirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilinaypti. Ammo natija sezilarli emas, ko‘rsatkich ko‘paysa ko‘payaypti, zinhor kamaymaypti.

### Har kuni 3,5 ming qurbon

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, yo‘l-transport hodisasi (YTH) tufayli Yer yuzi bo‘ylab har 24 soniyada bir nafar, har kuni 3,5 ming odam qurbon bo‘ladi. Bir yilda 1,3 million va undan

ham ko‘p odam yo‘ldagi baxtsiz hodisalar tufayli vafot etadi. Ularning asosiy qismini 5 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etishi esa yanada aynanchidir.

Yurtimizda ham holat ancha tashvishlanarli. Yaqin uch yillikka doir raqamlarga qarasa, holat kaftdagidek ayon bo‘ladi: 2021-yilda 10 mingdan ortiq yo‘l-transport hodisasi sodir etilib, qariyb 2,5 ming kishi halok bo‘lgan, 9230 tadan jan jarohati olgan.

2022-yilda esa 10 mingga yaqin yo‘l-transport hodisasi sodir etilishi oqibatida 2356 kishi halok bo‘lgan va 9606 odam tan jarohati olgan.

2023-yilning 11 oyida yuz bergan 8693 yo‘l-transport hodisasida 2080 kishi hayotdan ko‘z yumgan va 8055 yo‘lovchi tan jarohati olgan. Bular oddiy raqamlar emas, qoidani mensimay, o‘pkasini qo‘ltiqlagancha tezlikni me‘yoridan oshirib harakatlanganlar qilmishi oqibati. Buning ortidan kimningdir voyaga



yetmagan farzandi hayotdan ko‘z yumgan. Yana kimningdir otasi yo onasi nonga chiqib, tirik qaytmagan. Tirik qaytgan bo‘lsa ham bir umrga mayib-majruh bo‘lib qolgan. Ular endi avvalgidek harakat qilolmaydi. Boshqalardek hayotdan zavq ololmaydi...

### Shirakayflik fojiasi

Mast holda transport boshqarish tufayli 2020-2023-yillarda qariyb 500 ga yaqin yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan. Buning oqibatida

271 fuqaro halok bo‘lgan. O‘tgan yilning o‘zida shirakayf mashina boshqarish bilan bog‘liq saklam 42 ming huquqbuzarlik aniqlangan. Achinarlisi, 2023-yilda qariyb 6 ming haydovchi mast holda transport boshqarish uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgandan so‘ng ham takroran shu ishni qilgan.

Qizig‘i, 2022-yilda mast holda mashina haydaganlarni 5 yilga transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilishni ko‘zda tutgan qaror loyihasi ishlab chiqilayotgani haqida xabarlar tarqalgandi. Bu loyiha hali-hamon

ishlab chiqilmoqda. Amaliyotga tatbiq qilinishi bo‘yicha ko‘zga ko‘rinarli ish sezilmayapti. Mast holda takror avtomobil boshqarish holati esa ko‘payib bormoqda.

O‘tgan yili Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida “Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashirilishi munosabati bilan Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqilgandi. Unda qoidabuzarlik sodir etganlik uchun jarima ballari hisoblash tizimini joriy etish va bir yil davomida o‘n ikki balldan oshgan holda oxirgi sodir etilgan huquqbuzarlikka qo‘shimcha jazo tariqasida haydovchini transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish tartibini yo‘lga qo‘yish taklif qilindi. Loyiha deputatlar tomonidan qabul qilingan. Biroq hanuzgacha yakuniy bosqichga yetkazilmadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni nega kechikaypti? Holbuki, avtohalokatlar ko‘payib bormoqda.

— Qonun va qaror qabul qilish bir yoki ikki oyda hal bo‘ladigan masala emas, — deydi Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi matbuot kotibi Azizxon Murodov. — Qabul qilinadigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, avvalo, yaxshilab o‘rganiladi, so‘ng tegishli tartibda ma‘qullanadi. Siz aytgan qonun va qarorlar Qonunchilik palatasi tomonidan ko‘rib chiqilib, Senatga yuborilgan. Oliy Majlis Senati qonun va qarorlarning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan ish olib bormoqda. Ushbu hujjatlar qabul qilingach, ayanchli statistika va holatlar ham kamayadi, degan umiddamiz.

### Bir haydovchining 100 dan ziyod qoidabuzarligi

2023-yilda faqat foto va videoquyilmalar yordamida qariyb 13 millionga yaqin yo‘l harakati qoidabuzarligi aniqlangan. Ularning 3 million 350 mingtasi bitta transport vositasi

haydovchisi tomonidan 4 tagacha, qariyb 3 millionga yaqini esa 5 tadan 10 tagacha, 1 million 700 mingtasi 11 tadan 20 tagacha, 187 mingtasi 31 tadan 40 tagacha, 87 mingtasi 51 tadan 100 tagacha, e‘tibor bering, 18 mingtasi 100 tadan ko‘p yo‘l harakati qoidabuzarligini sodir etish tufayli yuzaga kelgan.

Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish haqidagi gaplar 2019-yilda paydo bo‘lgandi. O‘sha yilning may oyida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalar muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi joylashtirilgan. Qaror loyihasida 2020-yil 1-yanvardan boshlab milliy haydovchilik guvohnomasiga ega fuqarolar hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tartibi joriy etilishi aytilgandi. Biroq bunday bo‘lmadi.

2021-yil noyabrda Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e‘lon qilindi. Unga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvardan boshlab yo‘l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tartibi joriy etilishi kutilgan edi. Ammo ikkinchi marta ham bu masala ortga surilmoqda.

O‘ylantiradigan yana bir holat mavjud: yo‘llarda harkuni o‘nlab odam halok bo‘layotgan bir vaqtda yo‘l-transport hodisalariga qarshi choralarining amaliyotga joriy etilishiga yillar sarflanmoqda. Ko‘rilayotgan choralar ham kutilayotgan natijani berayotgani yo‘q. Shunday ekan, samarasi noaniq loyihalarni ishlab chiqqandan ko‘ra, natijadorligi yuqori qarorlar qabul qilish va keskin choralar ko‘rish zarur emasmi? Yo‘qsa, statistika bundan og‘ir savollarni oldimizga qo‘yaveradi.

**Mansurbek JABBOV,**  
*O‘zJOKU talabasi*



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Bugunning gapi

## YILLIK ZAHMATLAR ORTIDAN ASRLAR FAROVONLIGI KELADI



**Bahodir MA'MUROV,**  
pedagogika fanlari doktori,  
professor

Shu yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda ham ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, texnikum va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish borasida oliy ta'lim muassasalari oldiga qator vazifalar qo'yildi. Har bir sohaga doir muammolar bilan birga ularning yechimi bo'yicha taklif va mulohazalar bildirildi.

Yig'ilishda mazkur sohaga oid vazifalar ham belgilanib, unga ko'ra, kollej-texnikumlarining 50 ming o'quvchisini dual ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha topshiriqlar berildi. Bu ishlar, avvalo, to'g'imachilik, qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish, elektron texnika sanoati, mashinasozlik yo'nalishlarida tatbiq qilinishi zarurligi ta'kidlandi. Zotan, yoshlar maktab davridayoq, hech bo'lmasa, bitta hunarni egallab, katta hayotga qadam qo'ysa, yo'lini topishi oson kechadi. Aslida, bu fikrlar qon-qonimizga singib ketgan qadriyatidir. Xalqimiz buni oddiygina qilib “Bir yigitga qirq hunar oz”, degan maqol mag'ziga singdirib yuborgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi qarori bilan tasdiqlangan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, talabalar uchun zamonaviy texnologiyalar va dastgohlar yordamida o'qish bilan bir paytda korxona va tashkilotlarda ishlash imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli joriy etilgan edi. Yig'ilishda mazkur sohaga oid vazifalar ham belgilanib, unga ko'ra, kollej-texnikumlarining 50 ming o'quvchisini dual ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha topshiriqlar berildi. Bu ishlar, avvalo, to'g'imachilik, qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish, elektron texnika sanoati, mashinasozlik yo'nalishlarida tatbiq qilinishi zarurligi ta'kidlandi. Zotan, yoshlar maktab davridayoq, hech bo'lmasa, bitta hunarni egallab, katta hayotga qadam qo'ysa, yo'lini topishi oson kechadi. Aslida, bu fikrlar qon-qonimizga singib ketgan qadriyatidir. Xalqimiz buni oddiygina qilib “Bir yigitga qirq hunar oz”, degan maqol mag'ziga singdirib yuborgan.



## Ilm-fan odimlari

## YOG‘OCH BINOLARNING UMRI UZAYADI

## QURILISH MATERIALINI YONG‘IN VA ZARARKUNANDADAN HIMOYALASH USULI ISHLAB CHIQLDI

Yaqinda mamlakatimiz ilm-fani uchun katta yangilikka qo'l urildi. Yog'och qurilish materiallarini yong'in va zararkunandalardan himoyalaydigan oligomer antipiren-antiseptik olish usuli ishlab chiqildi. Mazkur texnologiya mualliflaridan biri — texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori Aziza Xolboyeva.

**Shahlo G'AFFOROVA,**  
texnika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

Bugun yog'och bino va inshootlar qurish uchun zarur bo'lgan qimmatli kompleks xossalarga ega, noyob tabiiy materiallar sirasiga kiradi. Ular asosidagi noyob obyektlarni yong'in hamda zararkunandalar ta'siridan himoya qilish zarurati oshib bormoqda.

Yog'och qurilish materiallarining yong'inga bardoshliligi va zararli hasharotlarga nisbatan biologik samaradorligini oshirish maqsadida ushbu materiallarga maxsus antipiren-antiseptik

bilan ishlov berish orqali bino va inshootlarni himoyalash mumkin. Jahonda tarkibida azot va oltingugurt bo'lgan oligomer antipiren-antiseptik olish, yog'och qurilish materiallariga chuqur shimdirish orqali yong'inga bardoshli hamda biologik samarador materiallar ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tarkibida azot va oltingugurt bo'lgan polisulfidlar, disulfidlar va boshqa oltingugurtli oligomer adduktlar olish, ularning yog'och materiallari yong'inga bardoshliligi va biosamaradorligini oshirish xossalarni aniqlash, oligomer antipiren-antiseptiklarning fizikaviy-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish, ularni olish texnologiyasini takomillashtirish, qo'llanish usulini soddalashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Yosh olim, Termiz davlat universiteti doktoranti Aziza Xolboyeva ishlab chiqqan usul yog'ochdan tayyorlangan qurilish materiallarini yong'in va zararkunandalardan himoyalashda ishlatiladigan antipiren-antiseptik ishlab chiqarishga asoslanadi. Mazkur loyihaning ahamiyati shundaki, **birinchidan**, bugun mamlakatimizga alohida e'tibor qaratiladi. antipiren-antiseptiklar o'rni bosadigan yangi, arzon mahsulotni mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish imkonini yaratiladi.

**Ikkinchidan**, ishlab chiqarilgan antipiren-antiseptiklar bilan ishlov berish yordamida yog'och qurilish materiallarining yong'in va zararkunanda hasharotlar ta'siriga chidamliligi yuqori darajaga ko'tariladi. **Uchinchidan**, binolarning yong'inga chidamliligi ortishi bilan odamlar salomatligiga xavf tug'diradigan omillardan biriga yechim topiladi. **To'rtinchidan**, termittar binolarga zarar yetkazishining oldini olish orqali inshootlarning uzoq yillar xizmat qilishiga erishiladi.

## Nuqtayi nazar

Mamlakatimizda islohotlarning yangi bosqichi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish murakkab tashqi va ichki muhit ta'siri ostida, raqobatning kuchayishi va yangi strategik tahdidlarning paydo bo'lish ehtimoli yuqori sharoitda ro'y bermoqda. Bu, avvalo, geosiyosiy raqobat kuchayishi, jahon bozorida talab va narx-navoning barqaror emasligi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda innovatsiyalar ahamiyatining oshishida namoyon bo'lmoqda. Bunday pallada kadrlar tayyorlash samaradorligiga erishmasdan turib, mamlakatning jahon bozorida turli tovarlar hamda xizmatlar sifati va narxi bo'yicha raqobatdoshligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

## IQTISODCHI-STRATEG KADRLAR KERAK

## shunchaki bitiruvchilar emas

**Abduvahob UMAROV,**  
**Avazbek SODIQOV,**  
**o'ZMU professorlari,**  
**iqtisodiyot fanlari doktorlari**

Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining joriy yil 7-fevraldagi “Iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi. U mamlakatimizdagi barcha OTMlar oldiga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sohasida o'ziga xos yondashuvlarni qo'llash, ixtisosliklarning bozorga moslashuvchanligiga e'tibor berish, ta'lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik usullarni tatbiq etish vazifalarini qo'yadi.

Yuqorida ta'kidlangan xavf-xatarlarning kelgusida ortib borishi hamda yangi strategik tahdidlar paydo bo'lish ehtimoli saqlanib qolmoqda. Bu, o'z navbatida, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish, iqtisodiy o'sishning yangi, asosan, innovatsion omillariga o'tishni taqozo etmoqda. Ayni paytda inson kapitali sifatini yuksaltirish iqtisodiy o'sish, aholi daromadini oshirish, kambag'allikni kamaytirishning asosiy omiliga aylanib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotida global muammolar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimiz hududlarini o'rta va uzoq muddatli barqaror rivojlantirish strategiyalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi tarkibiy islohotlar samaradorligini oshirish, yangi o'sish manbalarini ishga solish orqaligina barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, mavjud va strategik tahdidlarni hisobga olgan holda mamlakat va alohida hududlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish iqtisodiyotni tartibga solishda qo'llanayotgan samarali usullardan.

O'zbekistonning yangi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish bo'yicha muayyan ishlar qilindi va bunda hududlarni ravnaq toptirishga alohida e'tibor qaratildi. Rivojlanish strategiyalaridagi asosiy e'tibor inson kapitali masalasiga qaratilmoqda. Zero, zamonaviy iqtisodiyotda mamlakat taraqqiyoti kishilarning jismoniy mehnati, yer osti boyliklari va boshqa resurslarga emas, eng avvalo, insonlar aql-zakovatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Endi inson kapitalini rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etyapti. Mamlakatlar, hududlar va korxonalar rivojida inson omili yetakchi rol o'ynaydi. Bu esa ta'lim sifati masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Bu muammoni hal etish maqsadida asosiy e'tibor ta'lim tizimidagi qamrov darajasi ancha past bo'lgan maktabgacha va oliy ta'lim bo'g'lariga qaratildi. Natijada maktabgacha ta'lim qamrovi 72 foizga yetkazildi.

Oliy ta'lim muassasalarining umumiy soni 2,5 barobar, talabalar soni esa 3 barobardan ko'proq oshdi. O'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 38 foizni tashkil etdi. “O'zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olish, yoshlarning OTMlarga qamrovini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish ko'zda tutilgan.

Inson resurslaridan oqilona va samarali foydalanish har bir davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy masalaridan sanaladi. Uning dolzarbligi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, inson omili markaziy o'rinni tutgan sharoitda yanada oshdi. Bu aholining sifat xususiyatlarini o'zgartirishni, yangi turdagi kadrlar tayyorlashni talab etadi. Boshqaruv tizimining barcha darajasida, ilmiy-tadqiqot va tahliiliy markazlarda davlat, tarmoq va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari, strategiya va dasturlarni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarish mexanizmlarini qo'llay oladigan kadrlar yetishmayotgani yaqqol sezilib qoldi.

Mamlakatimizda davlat, mahalliy va xo'jalik boshqaruvi tizimida jarayonlarni chuqur tahlil qiladigan, mavjud muammolarning kelib chiqish sabablarini obyektiv baholay oladigan, kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilishning zamonaviy iqtisodiy-



matematik usullarni keng qo'llay biladigan, o'rta va uzoq muddatli istiqbolida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda strategik fikrlaydigan kadrlarga talab ortib bormoqda.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Milliy universitetida o'tgan yili oktyabrda davlat va korporativ strategiyalar kafedrasini tashkil etildi. Davlat boshqaruv organlari va kompaniyalar uchun iqtisodchi-strateg kadrlar tayyorlash kafedraning asosiy vazifasi sifatida belgilangan. U V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Moskva iqtisodiyot maktabining iqtisodiy va moliyaviy strategiya kafedrasini hamkorlikda faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot fakultetining strategik tahlil va prognozlash tashkiloti yo'nalishida mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. Bu yo'nalishda davlat, hududiy va xo'jalik boshqaruv organlari, ishlab chiqarish birlashmalari va boshqa tahliiliy markazlar uchun strategik tahlil qilish va strategik prognozlar, strategiya va konsepsiyalar, dasturlar, “yo'l xaritalari” ishlab chiqish va monitoring qilish bo'yicha yuqori bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlanadi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda keng jamoatchilik ishtiroki rejalashtiriladigan tadbirlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunday xayrli ishlarga yosh avlodni jalb etish o'zlarini yashayotgan mahalla, qishloq, shahar, umuman Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslikka undaydi. Shu maqsadda kafedra jamoasi yaqin istiqbolida Toshkent shahridagi maktablarning birida “Yosh strateglar maktabi”ni tashkil etishni ko'zda tutgan.

Kafedrada talabalarga bilim berish bilan bir qatorda rivojlanish strategiyalariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, hozir kafedra professor-o'qituvchilari xorijlik hamkorlar bilan birga viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish metodologiyasi ustida ish olib bormoqda.

Mamlakatimiz hududlari rivojlanishida kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish darajasi, ixtisoslashuvi, mahalliy resurslardan samarali foydalanishi bo'yicha muammolari hamda foydalanilmayotgan katta imkoniyatlari mavjud. Binobarin, uzoq yillar davomida o'tplanib qolgan muammolarni, hudud iqtisodiyotidagi tarkibiy nomutanosibliklarni qisqa muddatda bartaraf etib bo'lmaydi.

Bu, o'z navbatida, iqtisodiyot fani oldiga o'rta dolzarb yangi vazifalar qo'yimoqda. Shundan kelib chiqib, kafedra professor-o'qituvchilari “Hududiy rivojlanish: tendensiyalar, xavflar va strategiyalar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazdi. Unda O'zbekiston yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining shakllanishi va amalga oshirilishi, hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, mamlakatni izchil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishda tashqi iqtisodiy faoliyatning roli, inson salohiyatidan samarali foydalanish, barqaror rivojlanishda innovatsion va raqamli iqtisodiyotning o'rni yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimizdagi yetakchi iqtisodchi va geograf olimlar, akademiklar, davlat idoralari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Ma'ruzalarda bildirilgan ilmiy takliflar mamlakatimizning uzoq va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan milliy, tarmoq hamda hududiy strategiya dasturlarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi, deb umid qilamiz.

qo'llash usuli taklif qilindi. Mazkur markali oligomer antipiren-antiseptiklar bilan ishlov berilgan yog'och qurilish materiallari yong'inga bardoshliligi bo'yicha I guruhga kiritildi hamda DGT-2, DGT-3 oligomerlar yog'och qurilish materiallarini zararkunandalardan himoyalash samaradorligi 90 foiz bo'lgan antipiren-antiseptiklar sifatida tavsiya etildi.

Aziza Xolboyeva singari olimlar erishayotgan bunday natijalar mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan, xususan, kimyo fani rivojiga qaratilayotgan e'tibor, mazkur fanni o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilayotgani mahsuldur. Qolaversa, bunday yutuqlar zamirida universitetda yaratilgan ilmiy muhit, ilg'or ta'lim standartlarining joriy etilgani, yosh olimlarning ixtirochilik qobiliyatini yuzaga chiqarish borasida yaratilgan shart-sharoitlar mujassam.

Mahalliy xomashyodan yangi sintez qilingan antipiren-antiseptiklar uchun Adiya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi tomonidan ixtiroga ikkita patent berilgan. Oligomer antipiren-antiseptiklar olish texnologiyasi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda amaliyotga joriy etildi, shuningdek, yog'och qurilish konstruksiyalari va obyektlarida qo'llashga tavsiya qilindi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

1-mart ~ O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim tavalludi kuni

# OFTOBDAY NUR SOCHGAN tarjimalar yoxud yangilikka tashna yuraklar inqilobi

O'zbekiston Qahramoni, taniqli adabiyotshunos va tarjimon Ibrohim G'afurov "Tarjimaga asar tanlaganda, bu asar o'zbek milliy madaniyati uchun qanday yangilik bo'ladi, degan prinsipdan kelib chiqaman. Mening tarjimalarim hammasi yangilikka tashna yuragimning inqilobi. Yuragimga shu inqilob harakat bag'ishlaydi. Ertami, kechmi, o'quvchilar yuraklariga ham bu ma'rifiy inqilob albatta kirib boradi", deya ta'kidlaydi.



O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim tarjimalari o'zi yashagan davr ma'rifati, ma'naviyati uchun qanchalar hissa qo'shdi? Shoiraning o'ziga xos tili va lug'at boyligi qaysi manbalardan kuch oldi? Taniqli tarjimon Begoyim XOLBEKOVA bilan suhbatimiz ana shu savollar atrofida kechdi.

— Begoyim opa, O'zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyeva "San'atkor tarjimon" nomli maqolasida: "Zulfiya tarjimalarining o'zi bir olam. Ular oftobday nur sochib turadi. U o'zbek tiliga o'g'irgan she'rlar tuyg'ular, ehtirolarga yo'g'rib, xuddi asl nusxa kabi qiymat kasb etadi", deydi. Keling, suhbatimiz avvalida shoiraning benazir tarjimon ham bo'lganligiga urg'u berib o'tsak...

— Darhaqiqat, Zulfiyaxonim jahon she'riyati durdonalaridan go'zal tarjimalarni amalga oshirgan. Ularning go'zalligi shundaki, shoira har bir xalq ijodkorining o'zigagina xos bo'lgan uslub jilolariga mosini topa olganida va eng muhimi, har bir she'riy asar tarjimasiga katta ishtiyoq, mehr-muhabbat bilan yondashganidadir. Uning tarjimalarini o'qiganimizda nafaqat asiyat muallifini, balki tarjimonning ham inja tuyg'ularini, qalb haroratini his etamiz. O'rta maktabda o'qigan paytlarimda Sergey Yesenin, Aleksandr Pushkin she'rlari menga o'zgacha zavq berardi, ularni yodlab olardim. Pushkinning: "Я помню чудное мгновенье" deb boshlangan she'ri hanuzgacha xotiramda muhrlanib turibdi.

Talabalik chog'imda shu she'rni ardoqli shoirimiz Zulfiyaxonim tarjimasida o'zbek tilida o'qiddim va bu xuddi asiyatdagi kabi ruhiyatimga ta'sir qildi:

Esimdadir ajib dam hali:

Ko'z oldimda bo'lding namoyon,

Pok go'zallik dahosi kabi,

Bir lahza'lik xayol, tushsimon...

Agar men, bu she'rni avval rus tilida o'qimaganimda uni tarjima emas, Zulfiyaxonimning o'zbek tilida yozgan she'ri deb bilardim. Tarjimonning mahorati ham mana shunda-da. Tarjima tarjimaday emas, u o'quvchida ona tilida yaratilgan san'at asaridagi taassurot uyg'otishi kerak. Tarjimaning mukammal bo'lishi ko'p jihatdan yana bir muhim omil — asar muallifi bilan tarjimonning ruhiy mushtarakligiga bog'liq. Pushkin she'ridagi sof muhabbat, hijron kechinmalari, sog'inch tuyg'ulari Zulfiyaxonim o'zi yuragidan o'tkazgan quvonchli, iztirobli qadrdon tuyg'ular bilan uyg'unlashgan. Shu bois, ular tarjimada bor bo'yi basti bilan asiyatdagidek to'la'ligicha qayta aks etgan. Tarjimada shakl, ohang va qo'qiyalanish tartibida ham muvofiqlik bor. Bir so'z bilan aytganda, sevimli shoirimiz Zulfiya opa nafaqat Pushkin, balki boshqa xalqlar ijodkorlarining asarlariga ham ijodiy yondashib, badiiy yetuk mukammal tarjimalarni yaratgan.

— Shoira ijodi turkiy adabiyotlar kontekstida salmoqli o'rin egallaydi. Sharq mamlakatlari silsilasida uning she'rlari 64 tilga tarjima qilingan ekan. Ular Zulfiyaxonimning she'riy fasohatini, nafosatini to'la ifodalab bera olgan, deb o'ylaysizmi?

— Shoiraning she'rlariga nafaqat Sharq mamlakatlari ijodkorlari, balki rus xalqining yetuk shoirlari, tarjimonlari ko'p marotaba murojaat qilgan. Ayrim she'rlari rus tili orqali G'arb tillariga ham tarjima qilingan. Lekin e'tiborimni ko'proq o'ziga tortgan jihat shuki, Zulfiyaxonim she'rlarida madh etilgan muhabbat, vafo, sadoqat, diyonat kabi chin insoniy tushunchalar nafaqat Sharq mamlakatlari tarjimonlari, shuningdek, rus xalqining ma'naviy boyligiga katta hissa qo'shgan N.Grebnev, S.Lipkin, V.Derjavin kabi taniqli ijodkorlarning tarjimalarida yuksak pafoslarda qayta yaratilgan. Tarjimonlar garchi erkak ijodkor bo'lsalar-da, Zulfiyaxonimdek nazokatli, zukko shoiraning ayollarga xos nafis tuyg'ularini, quvonchu qayg'ularini, butun qalb kechinmalarini nihoyatda noziklik bilan ilg'ay olgan. Bu, albatta, tarjimonning savqi tabiysi va o'ziga xos mahoratidan darak beradi. Zulfiyaxonimning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rining Lipkin amalga oshirgan tarjimasini ham asiyatga hamohangligi bilan yodimizga o'rnatish kerak:

Живым дождем омыв миндаль,  
В рассветный час пришла весна.  
Полетом птиц наполнив даль,  
Тревожа нас, пришла весна.  
О, как любила ты час ночной,  
Когда зотоя зацвеств урюк,  
И аромат земли сырой,  
И почеч хлопаящюй зюк!

Tarjimon asiyatdagi ayrim so'zlarni tushirib qoldirgan bo'lsa-da, lekin ularning ma'nosini ifodalaydigan boshqa so'zlardan mohirona foydalangan va go'zal tarjima asarini yarata olgan. Har bir xalqning urf-odati, turmush tarzi, an'analari, madaniyati, ma'naviyati, iqlim va geografik joylashuvidan kelib chiqib, uning qarashlari, muqoyasa qilishi va o'xshatishlari ham turlicha bo'ladi. Mana shu "turlichalik" tarjimonidan matnga bo'lgan munosabatda hushyorlikni, izlanuvchanlikni talab etadi.

— Siz Zulfiyaxonimning she'rlari tarjimoni sifatida uning o'ziga xos lug'ati va so'zlarni qo'llashdagi mahoratiga to'la guvoh bo'lgan ijodkorsiz. Tarjima jarayonida bu nozikta'b shoiraning iboralari, o'xshatishlari va qochirmlarini xorij tiliga o'g'irish oson bo'lmagandir...

— Zulfiyaxonimning she'rlari garchi hamma uchun tushunarli, soddaday tuyulsa-da, ularning aksariyati o'ta ta'sirchan ruhda yozilgan. Xuddi shunday poetik ta'sirchanlikni tarjimada qayta yaratish tarjimonidan o'ziga xos ijodiy izlanuvchanlikni, hissiyotlar uyg'unligini, tajriba va mahoratni talab etadi.

2015-yil Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Hukumatimiz tomonidan uning she'rlarini qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilish vazifasi berildi. Zulfiyaxonim asarlarini ingliz tiliga o'g'irish Xalqaro adabiy aloqalar va badiiy tarjima kengashi tomonidan menga topshirildi. Bu mas'uliyatli vazifaga kirishishdan avval shoira asarlarini yana qayta-qayta o'rganib chiqdim, ko'proq barcha xalqlarga tanish tuyg'ular tarannum etilgan sevgi va vafo, hijron va ayriliq, shukronalik va vatan haqidagi she'rlarni tarjima uchun belgilab oldim. Yuqorida aytganimday, Zulfiyaxonim she'rlaridagi kuchli ekspressivlikni qardosh bo'lmagan, o'zbek tilidan tamomila yiroq bo'lgan ingliz tilida qayta ifodalashning o'zi murakkab ijodiy jarayonni o'z ichiga olgan. Bor bilim va mahoratimni ishga solishga, har bir so'zga alohida ichki intuitsiya bilan yondashib, ijodiy izlanishimga to'g'ri kelgan. Masalan, shoiraning birlik shaklda ko'lagan ayrim so'zlari tarjima tilida shu shaklda qo'llansa, u asiyatdagidek emosionallikni bera olmaydi. Misol uchun Zulfiyaxonimning:

Seni birdan jonsiz ko'rdim,

Jonim chiqdi mening-da.

Es-hushidan ajrab turdim,

Tuyg'um ketdi sening-la...

misralaridagi "tuyg'u" so'zi ingliz she'riyatida "emotions" deya faqat ko'pchilik shaklida qo'llanilgandagina poetik effekt kasb etadi:

Suddenly, seeing you lifeless,

My heart stopped beating too.

As if acting as mindless,

Emotions have left with you.



Asiyatdagi "tuyg'um ketdi sening-la" degan misraning "emotions have left with you" (tuyg'ular ketdi sen-la) deya tarjimada ko'p-lik shaklida berilishi ingliz o'quvchisi ong-u shuurida shoira yorining bevaqt vafoti nafaqat shoira tuyg'usini, balki dunyodagi jamiki tuyg'ularni olib ketganday, dunyo usiz rangsiz qolganday kabi kuchli taassurot uyg'otadi. Zulfiyaxonim she'rlaridagi o'xshatish, personifikatsiya (shaxslashtirish) kabi uslubiy bo'yqodur so'zlar tarjimasida ustida ishlash jarayoni nafaqat zahmatli, shu bilan birga, zavqli ham edi. Shoiraning "Mushoira" dostonida ifodalangan boshqa xalqlar madaniyatini his etish men uchun maroqli bo'lgan. Dostondagi muqoyasalarni asiyatdagidek saqlab qolishga harakat qilganman:

China's and Bagdad's shoes wonderful,  
(Xitoyning bejirim, Bag'dodning puxta)

They are standing side by side. (Oyoq kiyimlari turar yonma-yon.)

Iran's Ceylon's shoes colorful, (Qarayman, Seylon bor va boshqa juftda)

They seem elegant, snug and tight. (Eron koshibining san'i ayon.)

— Afsuski, yosh tarjimonlarning Zulfiyaxonim ijodi borasida olib borgan izlanishlarini kuzatganimizda ular hali bu ijodkor ruhiyatini, ma'rifati va ma'naviyatidan, o'zbek tilining eng go'zal va inja imkoniyatlaridan bebahra ekaniga guvoh bo'lamiz. Yoshlari-miz "har qanday tarjima va har qanday ifodaga qodir" tilimizni to'la anglashi va his etishi uchun nimalar qilishi zarur?

— Badiiy asarni tarjima qilish uchun, eng avvalo, tarjimonning o'zi ham ijodkor bo'lishi, ayniqsa, she'riy asarni tarjima qiladigan tarjimon o'z ona tilida she'riy yoza olishi, tarjima tili va ona tilini chuqur bilishi, she'riyat tarjimasini masalalari haqidagi nazariyalardan yaxshi xabardor bo'lishi, tarjima jarayonida duch keladigan muammolarni nazariy bilimlariga tayangan xolda amaliyotga tatbiq eta olishi zarur. Bundan tashqari, botiniy go'zal his-tuyg'u, o'ta nozik did tarjimonning doimiy hamrohiga aylanishi kerak. Tarjimon boshqa xalqlarning ham urf-odatlarini, udumlari, tabiati, mentaliteti, dunyoqarashi, maqol va matallarni yaxshi o'rgangan bo'lishi juda ham muhim. Buning uchun, albatta, ko'p o'qish, izlanish kerak bo'ladi. Oliygo'hlarning tarjimonlik fakultetlarida Badiiy tarjima, Badiiy matn tarjimasini va tahriri, Amaliy badiiy tarjima, She'riyat tarjimasini muammolari kabi fanlardan dars soatlari ko'paytirilishi va bu fanlar bakalavriatning hech bo'lmaganda 2-bosqichidan o'rgatilishi maqsadga muvofiq. Yurtimiz yoshlari orasida iste'dodlilari ko'p, faqat ular ko'nikma, malaka va tajriba yetishmaydi. Badiiy tarjima bo'yicha yuqoridagi kabi fanlardan zarur bilimlarni egallasa, ishonamanki, yoshlarimiz orasidan ham mohir adabiy tarjimonlar yetishib chiqadi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri  
Muxtasar TOJIMAMATOVA  
suhbatlashdi.

## Turizm

# To'rt faslning har birida sayohat

Alloma shoir aytganidek, har faslning o'z xislati, o'z fazilati bor. Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati. Darhaqiqat, jannatmonand yurtimizda o'z tarovati bilan kishini maftun etadigan har faslida sayohat qilish uchun go'zal maskanlarimiz ko'p. Bo'stonliq, Parkent va Zomin tog'lariga qishin-yozin tashrif buyurib, dilingiz yayraydi. Diyorimizda to'rt faslning har birida sayohat qilish uchun imkoniyatlar ham yetarli, xorijdan kelayotgan sayyohlar qadim va navqiron kentlarimizni tomosha qilib, qadriyatlarimizga hurmati oshadi, ma'naviyati bir qadar yuksalishi shubhasiz.

sport, gastronomik, tibbiy, inklyuziv, ta'lim va ilmiy turizmni rivojlantirish, turizm bozorida keng joriy qilish maqsadida salmoqli ishlar olib borilmoqda, turizm infratuzilmasi bilan shug'ullanayotganlar uchun qo'shimcha imtiyozlar yaratilmoqda.

O'zbekistonga xorijlik turistlarni keng jalb qilish, ularga zarur shart-sharoit yaratish, turizm obyektlaridan samarali foydalanish, sohada yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek, turizm salohiyatini xorijda manzilli targ'ib qilish maqsadida joriy yil 12-yanvar kuni Prezidentimizning "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Shuningdek, "Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida to'g'risiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarda yurtimizda turizmni iqtisodiyot drayveriga aylantirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

2023-yilda xorijdan 7 million sayyoh tashrif buyurgan va ularning o'rtaacha qolish kuni 4-5 kuni tashkil etgan. Bunda "O'zbekiston bo'yab sayohat qil", "Yoshlar turizm haftaligi" va "To'siqsiz turizm" dasturlari ishlab chiqilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"To'siqsiz turizm" dasturi nogironligi bo'lgan sayyohlar uchun qulay infratuzilma

yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "to'siqsiz turizm" dasturi xususida ham to'xtalib o'tildi.

Mutasaddilarga madaniy meros, muzey va konsert-tomosha obyektida nogironligi bo'lgan odamlarga qulay sharoitlar yaratish, mehmonxonalardagi o'rinlarni nogironligi borlarga moslashtirish topshirildi. Nogironligi bor sayyohlar uchun transport, mehmonxona, madaniyat obyektlari va ziyoratgohlarga haftalik va oylik maxsus chegirmalar berish g'rafigini tasdiqlash vazifalari belgilandi.

Jizzax shahar temir yo'l vokzalidan Amasoy, Baxmal, Zomin va Forish tumanlariga avtobus va mikroavtobuslar qatnovi yo'lga qo'yildi va "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi hududida

uzunligi 2640 metrlik zamonaviy dor yo'li foydalanishga topshirildi.

Hududlarda mahalliy hamda xalqaro darajadagi turizm tadbirlari tashkil qilindi. Jumladan, Shahrisabzda "Ethno and modern fashion week" xalqaro festivali o'tkazildi. Namanganda "62-xalqaro gullar" festivalining muddati 10 kundan 1 oyga uzaytirildi va buning natijasida tadbirga 1,6 million sayyoh tashrif buyurdi.

"Zomin", "Chimyon" va "Amirsoy" kabi kuort zonalar hamda ko'ngilochar majmualarda xalqaro brendlar, milliy ipak matolari, suvenir, zargarlik mahsulotlari va oltin quymalar do'konlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Joriy yildan boshlab "O'zbekistonda yana bir kun sayohat" dasturiga ko'ra, viloyatlararo turizm obyektlarini o'zaro bog'lovchi "Respublika turizm halqalari" hamda tuman va shaharlar o'rtasida "Hududiy turizm halqalari" tashkil etiladi.

Turizm qo'mitasi tomonidan sayyohlik yo'nalishlarning vagona reyestri yuritiladi. "To'rt faslning har birida sayohat" dasturi amalga oshiriladi. Masalan, bahorvakuz fasllarida ekologik, ekstremal, tibbiy va sog'lomlashtirish, yozda suv havzalari va oromgo'hlari, qishda ekstremal turizm va tog'-chang'i zonalarining imkoniyati targ'ib qilinadi. Mazkur turizm mavsumlari ochilishi oldidan festivallar uyushtiriladi.

Yurtimiz turizm salohiyati xorijda ham keng targ'ib etilayotgani xususida gap borganda, 26-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan "2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" rezolyutsiyasi bir ovozdan ma'qullanganini e'tirof etish joiz.

Rezolyutsiyada barqaror turizmni, jumladan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni ta'minlash, qishloq hududlarini rivojlantirish va qishloq aholisining yashash sharoitlarini

yaxshilashga xizmat qiluvchi ekoturizmni rivojlantirish muhimligi keltirib o'tiladi.

Turizmni targ'ib qilish borasida dunyoning qator telekompaniyalari, ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlik ishlab olib borilaypti.

Singapurdagi xalqaro "Crescent Rating" tashkiloti Xiva shahrini 2023-yilda "Yilning islom merosi manzili" (Islamic heritage destination of the year) deb e'lon qildi. Saudiya Arabistonining ommabop "Sado" gazetasi saytida 2017-yilda respublikaga har bir chet ellik sayyoh o'rtaacha 197 dollar sarflagani, bu ko'rsatkich 2023-yilda 400 dollarga yetgani, o'tgan yilning 9 oyi davomida turizm sohasidan olingan daromad 1,72 milliard dollarni tashkil etgani, Jahon sayyohlik tashkiloti tomonidan e'lon qilingan turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan 20 ta davlat ro'yxatida O'zbekiston to'rtinchi o'rinda qayd etilgani keltirib o'tilgan.

Buyuk Britaniyaning yetakchi media kompaniyasi — BBC o'z saytida Samarqandni Markaziy Osiyoning "yangi javohiri" deb e'tirof etdi. Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar tillarida yuritiluvchi "Tabarruk ziyorat" platformasi ishga tushirilib, dastlabki bosqichda unga mamlakatimizdagi 100 ta ziyorat obyekti kiritildi. O'zbekistonning turizm salohiyatini targ'ib qilish maqsadida 11 ta xalqaro yarmarkada milliy turizm stendi, Kuala-Lumpurda Malayziya Islom san'ati muzeyida "O'zbekiston — islom sivilizatsiyasi markazi" fotoko'rgazmasi tashkil etildi. Shu o'rinda aytish kerakki, Samarqand shahrida Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi o'tkazilgani alohida tashsga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, bulardan ko'zlangan maqsad — turizm sohasini mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishiga aylantirish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga qaratilgan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 708.

44611 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov  
Musahhih: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 01:35 Topshirildi — 02:15